

**Mavzu: Bo'lajak chet tili o'qituvchilarida multimediya texnologiyalaridan
foydalanish malakalarini shakllantrish.**

Abdusalomova Shoxista

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

ILMIY RAHBAR:

Dotsent SH. S.ALIMOV.

ANDIJON – 2016

MUNDARIJA

KIRISH	3 -7
I bob. Chet tili o'qitishda texnik vositalardan foydalanishning nazariy asoslari.	
1.1. Texnik vositalarning chet til o'qitishdagi o'rni va roli.....	8-12
1.2. Texnik vositalarning turlari tasnifi.....	13-22
1.3. Turli ta'lim bosqichlarida texnik vositalarning ishlatilishiga qo'yilgan talablar.....	23-29
I bob yuzasidan xulosa	30-31
II bob. Ta'limning turli bosqichlarida texnik vositalardan foydalanishning lingvistik, psixologik va didaktik asoslari.	
2.1. Texnik vositalardan foydalanishning psixologik asoslari.....	33-39
2.2. Texnik vositalardan foydalanishning lingvistik asoslari.....	40-42
2.3. Texnik vositalardan foydalanishning pedagogidaktik asoslari.....	43-46
II bob yuzasidan xulosa.....	47
III bob Texnik vositalardan turli ta'lim bosqichlarida foydalanishni metodik shakllantrish.	
3.1 I-III sinflarda texnik vositalardan foydalanish metodikasi.....	48-51
3.2 V-VI-VII sinflarda texnik vositalardan foydalanish metodikasi...	52-59
3.3 VIII-IX sinflarda texnik vositalardan foydalanish metodikasi.....	60-71
III bob yuzasidan xulosa.....	72-73
Xulosa	74-75
FOYDALANILGAN ADABYOTLAR RO'YHATI	76-77

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Xalqning boy zamonaviy madaniyati, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiya sohasidagi yutuqlari asosida mutaxassislar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek: «Bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu-niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri–bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz ».

Bugungi kunda xorijiy tilni bilish o‘ta muhim ahamiyat kasb etayotganligi bois chet tili o‘qitish tizimini ham isloh etish, ta’lim jarayonlarida zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishni ilg‘or usullarini chet tili o‘qitish amalyotida qo‘llashni ta’lim tizimidagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shuningdek mustaqil respublikamizning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni tobora o‘sib, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy aloqalar keng quloq yozayotganligi kelajagimiz bo‘lgan yosh avloddan chet tilini mukammal bilish zaruriyatini tobora oshirmoqda.

Yosh avlodni chet tillarini chuqur o‘rgatish, jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda ahborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalana oladigan muttaxassislarni tayyorlash, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish orqali mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuvini kuchaytrishga xizmat qiladi.

Bir necha tilni bilish faqat ahborot olish uchun hizmat qilibgina qolmay, kishining aqliy faolyati va fikrlash qobilyatini ham rivojlantradi. Bu borada internet tizimidan keng foydalaniladi. [1.76.]

O‘zbekiston Respublikasi Prizidenti I. A. Karimovning 2012 yil 10 dekabrda
“Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtrish chora tadbirlari

to'g'risida"gi 1875–sonli yoshlarning xorijiy tillarni o'zlashtirish darajasini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy muttaxislarga qo'yilayotgan talablardan biri uning zamonaviy o'quv texnik vositalardan boxabarligi va ulardan ta'lim maqsadiga ko'ra foydalana bilish malakasidir.

Texnik taraqqiyot qanchalik ilgari ketgani sayin yangi yangi texnik vositalar yaratilib amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ta'limga oid texnik vositalar ham shular jumlasidan. Bu esa zamonaviy o'qituvchida ushbu texnik o'quv vositalaridan o'quv jarayonida shunchaki foydalanib qo'yishi emas, balki o'quv maqsadiga ko'ra yani ma'lum bir mavzuni o'rganishdan ko'zlangan maqsadga mos foydalanish kerakligini taqazo etadi. Bu deganimiz foydalanilayotgan o'quv texnik vositalarni qo'llash vaqti soni [ya'ni bir martali yoki takroriyli] xamda metodlarini to'g'ri tanlay bilish va qo'llashni ham nazarda tutadi. Bulardan tashqari ulardan foydalanish bilan bog'liq psixologik, pedagogik omillarni ham hisobga olish talab etiladi.

Pedagogik amaliyot davomidagi kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki ko'p hollarda o'quv texnik vositalardan maqsadli foydalanish yo'lga qo'yilmagan.

Ushbu aytilganlardan kelib chiqib mzkur BMI ishining dolzarbligini quyidagicha belgiladik.

1 Bugungi kundagi eng so'ngi texnika sohasidagi yutuqlardan chet til o'qitish ta'limida samaralifoydalanish yo'llarini ishlab chiqishning zarurligi shuningdek, zamonaviy texnik vositalardan maqsadli foydalanishga oid metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish.

2 Bo'lajak Chet til o'qituvchilarining zamonaviy texnik vositalardan foydalanish malakalarini shakllantrishning zaruratligi.

3 Chet tili o'qituvchilarining texnik vositalardan foydalanish malakalarini shakllantrish psixalogik, lingvistik va didaktik omillar asosida metodik tashkillashtrishga qaratilgan tatqiqotning muhimligi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi

Bu borada J.Jalolov, O'.Xoshimov, I.Yaqubov, kabi chet tili o'qitish metodikasi masalalari bilan shug'ullangan mamlakatimiz metodist olimlari, rus metodist olimlaridan Shatilov.S.F, RogovaG.V,Vershagina N.I, Strakov.A.P, kabi metodistlar ushbu masalada o'z qarashlarini bildirishgan. Oliy ta'limda chet til o'qitish bosqichlari, MK borodulina, A.S Lurelarning ishlarida ko'rib o'tilgan.

Mazkur Bitiruv Malakaviy ishimizning maqsadi bo'lajak chet tili o'qituvchilariga kasb mahoratlarini yanada oshirishda, zamonaviy multifikatsion vositalarning ahamiyati va ulardan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari xususida tushuncha va tavsiyalar berish, hozirda ta'lim tizimida zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishi bo'lib xizmat qilib kelayotgan multimediya texnologiyalari yordamida chet til o'qitish va dars davomida texnik vositalar yordamida chet til darsni metodik tashkillashtirishga doir ilmiy ma'lumotlar va yangicha yo'llar bilan tanishtirishga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalarni belgilab oldik.

- tadqiqotimiz muommosidan kelib chiqqan holda mavjud ilmiy manbalarni tahlil etish va shu asosda ilmiy xulosalar qilish;
- Bo'lajak chet tili o'qituvchilarini zamonaviy texnik vositalar imkoniyatlari bilan tanishtirish va ularda texnik vositalardan foydalanib dars o'tish malakalarini shakllantirish.
- Chet tilini o'rgatishda texnik vositalarning ahamiyatini tushuntrish
- Zamonaviy texnik vositalarning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti:

Chet til o'qitishdagi zamonaviy texnik vositalar.

Bitiruv malakaviy ishining obykti:

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari tomonidan texnik vositalardan va multimedia materyallaridan foydalanish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi:

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", prezidentimiz I. A. Karimov chet tillarini o'qitishga oid fikr mulohazalari, chet tillarini o'qitishga oid metodik, psixologik, adabiyotlar, Vazirlar Mahkamasining direktiv xujjatlarini o'rgatish.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari:

- Mavzuga oid adabiyotlarni, o'rganish va tahlil qilish.
- O'quvchilarning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha to'plangan ilg'or ish tarbiyalarini tahlil etish va unumlashtirish.
- o'quvchilar bilan suhbatlar uyushtirish so'rovlar o'tkazish. Intervyu, kuzatuv, suhbat, test, anketa va eksperimental metodlar.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi:

Zamonaviy texnik vositalardan foydalanishning lingvistik, psixologik va pedagogidaktik xususiyatlarini aniqlandi. Inson ongining sog'lom rivoji psixologik jarayonlarning normal rivoji, muhit, rasmiy belgilar, ta'lim-tarbiya usullari, hamda yetarlicha moddiy–ma'naviy shart – sharoitlar bilan bog'liq masalalar tadqiq etildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati:

Bitiruv malakaviy ishi yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy adabiyotlar sharhi, manbalar taxlili, ilgari surilgan nazariy g'oyalar va ishlab chiqilgan xulosalar zamonaviy texnik vositalarni chet tilini o'qitishdagi ahamiyat darajasini ko'rsatib berdi. Ayniqsa, texnik vositadan foydalanish bolaning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishi va yangliklarni faqat o'qituvchisi yordami bilangina emas o'zining qo'shimcha izlanishlari yordamida bilishga intilishi kuchayadi. Dars jarayonida zamonaviy o'qitish vositalaridan maqsadli foydalanishga ilmiy jihatdan yondoshildi va ayrim texnik vositalardan maqsadli foydalanishga oz bo'lsada hissa qo'shildi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati:

O'rganilgan muammo yuzasidan ishlab chiqilgan tavsiyalar chet til, o'qituvchilari, ota-onalar, o'quvchilar, talabalar, uchun muhim manba sifatida

xizmat qiladi. Malakaviy bitiruv ishi materiallari boshlang'ich sinf o'qituvchilari va yuqori ta'lim bosqichlarida zamonaviy texnik vositalar yordamida chet tilini o'qitishda bo'lajak chet tili o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiya bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ishning tuzilishi va hajmi:

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, ... ta paragraf, xulosa va tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv ishining umumiy mazmuni:

Ish kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi maqsadi va vazifalari, ilmiyligi, amaliy ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Ishning birinchi bobi chet tilini o'qitishda texnik vositalardan foydalanishning nazariy asoslari deb nomlanib unda, zamonaviy o'qitish tizimining chet tilini o'qitishdagi ahamiyati va multimediya texnologiyalari hamda ularning ta'lim tizimida qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birgalikda texnik vositalarning turlari tasnifi ulardan dars davomida foydalanishning ahamiyati, roli haqida ilmiy ma'lumotlar tahlil qilinadi va texnik vositalarning turli ta'lim bosqichlarida qo'llanishi bo'yicha qo'yilgan talab va tavsiyalar bilan tanishtriladi.

Ishning ikkinchi bobida texnik vositalardan turli ta'lim bosqichlarida foydalanishning lingvistik, psixologik va didaktik asoslarini o'rganishga qaratilgan nazariy fikrlar yoritilgan.

Ishning uchinchi bobida texnik vositalardan foydalanishning turli ta'lim bosqichlarida yani I-III, IV-V-VI, va VIII-IX sinflarda texnik vositalardan foydalanishni metodik tashkillashtirishga doir nazariy fikrlar va tavsiyalar berib o'tilgan.

Ishning xulosa qismida har uchala bobdan kelib chiqib, umumiy xulosalar yoritilgan.

I BOB Chet tili o'qitishda texnik vositalardan foydalanishning nazariy asoslari.

I-I Texnik vositalarning chet tili o'qitishdagi o'rni va roli.

O'zbekistonning milliy taraqqiyotida har tomonlama barkamol shaxsni voyaga yetkazish asosiy masalalardan biridir. Bitiruv malakaviy ishimizning birinchi bobida chet tili o'qitishda texnik vositalardan foydalanishning asoslangan turli hil nazariyalariga to'xtalib o'tamiz, ushbu bobda texnik vositalarning chet tili o'qitishdagi muhim o'rni va kasb etuvchi zaruriy ahamiyati, ularning turlari va ulardan foydalanishda qo'yilgan asosiy talablar xususida malumotlar taqdim etamiz. "Axborot texnologiyalari asri" deb atalgan XXI asr, yangi ming yillikda axborot- kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalariga jadal kirib kelmoqda. Ta'lim sohasi ham bu jarayondan chetda qolmadi. O'qitishning zamonaviy interaktiv vositalari, multimediyaviy ta'lim mahsulotlari va multimediya ilovalarining chet tillarini o'qitishda qo'llanilishi o'zining samarasini bermoqda. Ular til o'rganuvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirishda asosiy instrumentlar qatoridan o'rin olmoqda. Chet tillarni o'qitishda va o'rganishda masofaviy ta'lim shakllaridan foydalanish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada avval Multimediyaning o'zi nima degan savolga javob berib o'tmoqchimiz. Multimediya–interaktiv tizimli, ovoz bilan bir qatorda, animatsion kompyuter grafikasi, video, statik tasvirlar va matn namoyishi hisoblanadi. Multimediya so'zi kompyuter terminalogiyasidan mustasno ravishda paydo bo'lgan, uni birinchi bo'lib 1966-yilda Amerikalik qo'shiqchi Bob Goldshteyn o'zining ish faolyatida ishlatgan. Keyinchalik bu termin bilan barcha maxsus effektli xodisalar nomini umumlashtrib atab boshlangan, faqatgina 90 yillarida bu so'zni chuqur tahlil qilingan. Ilgari darslarda slayd va magnitafon tasmalaridan foydalanilsa bu dars multimediyalik hisoblangan bo'lsa, xozirgi kunda bu dars multimediyalik hisoblanishi uchun unga maxsus kompyuter dastur, proektor, video va boshqa interaktiv vositalardan foydalanishni o'z ichiga olish kerak bo'ladi. Multimediya talim oluvchilar uchun eng samarali usullardan hisoblanadi. U ta'lim

jarayonini boyitib uning samaradorligini oshiradi, til o'rganuvchilarning faolyatini oshiradi, yangi ma'lumot olishni bir necha bor tezlashtradi. Hozirgi kunga kelib, o'qituvchi dars jarayonini bu vositasiz tasavvur qilolmaydi. Dars shakli ham bu texnologiya tasirida o'zgarib ketadi. Ilgari dars jarayonida o'qituvchi faol rolni o'ynagan bo'lsa, hozirgi kunda o'quvchi o'qituvchi bilan bir qatorda hatto bazi holatlarda o'qituvchi passiv rolni o'ynovchi shaxs bo'lib hisoblanmoqda. O'qituvchi faqat bilim beruvchi bo'lib hisoblangan bo'lsa, hozirda u yo'l ko'rsatuvchi, yo'nalish beruvchi kishi sifatida faolyat yurutmoqda holos. Multimediya darsining asosiy vazifalariga barcha o'quvchilarni dars jarayoniga jalb qilish, ularning tilga bo'lgan qiziqishini oshirish, berilgan yangi darsni o'quvchilarga turli hil vositalar orqali chuqur singdirish va ularda tilga bo'lgan ko'nikmalarini shakllantrish sanaladi. [12.75.]

Hozirgi kunda O'zbekistonda chet tillarini o'rgatishga qaratilgan ko'plab dasturlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Davlat aloqa axborotlashtrish va telekommunikatsiya texnologiyalari qo'mitasi, O'zbekiston matbuot va axborot agentligi hamda O'zbekiston milliy ahborot agentligi, bolalar va yoshlarning manfaatlari hamda qiziqishlarini inobatga olgan holda, televidiniya, shu jumladan, mahalliy telekanallar orqali bolalar va o'smirlarni xorijiy tillarga o'rgatish bo'yicha ko'rsatuvlar tayyorlash hamda ularni translyatsiya qilish, boshqa halqlarning tarixi va madaniyati, urf odatlariga bag'ishlangan ilmiy ommabop xorijiy badiiy hamda multiplikatsyaviy filimlarni o'zbek tilidagi subtitr yordamida, muntazam ko'rsatib borishni amalga oshirish hamda "ZiYoNet" tarmog'i orqali talim muassasalarining uskunalari uchun ilovalar bilan boyitish, shuningdek ingliz tilida o'quv va badiiy adabyotlar, ixtisoslashtirilgan rasmlar bilan bezatilgan gazetalar va jurnallar chop etish, ularga mahsus ruknlar hamda ilovalar tashkil qilish ham ko'zda tutilgan. Yuqorida aytib o'tganimdek prezidentimizning chet tilini o'rgatish bo'yicha qabul qilgan qarorida "Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tiilarda erkin

so'zlasha oladigan muttaxislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon taraqqiyoti yutuqlari hamda dunyo ahboroti resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish ishlari va buning uchun bir qator muhim vazifalarni amalga oshirish ko'rsatilgan. Bundan tashqari "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi qarorida 2013-2016-yillarda ta'lim muassasalarida xorijiy tillar o'quv xonalarini zamonaviy axborot kommunikatsiya va o'qitishning texnik vositalari va anjomlari bilan bilan jihozlashning jadallashtirilgan dasturini ishlab chiqish talabi ilgari surulgan. Chet tili amaliy darslari o'quv xonalarida zaruriy texnik jihozlarning mavjud bo'lishi dars sifatini oshiradi, talabalarga chet tiliga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytradi, shuning bilan birga til o'rgatuvchi professor o'qituvchilar ham yaratib berilgan shart sharoitlardan unumli foydalangan holda o'zlarining bor professional pedagogik kasb mahoratini ishga solib, yangi pedagogik texnologyalarni qo'llagan holda sifatli dars mashg'ulotlarini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar [12.110.]

Chet til o'qitishda texnika vositalaridan foydalanishdan asosiy maqsad:

- Ko'rgazmalilikni kuchaytrish;
- Problemali ta'limni amalga oshirish;
- O'quvchilarni turli kishilar nutqini eshitishga va tushunishga o'rgatish;
- Og'zaki nutq tezligini o'stirish;
- O'rganilayotgan til materyallarini hayotga bog'lash;
- O'quvchilarni g'oyaviy syosiy va ahloqiy tarbyalash;
- O'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishdan iborat.

Bugungi kunda yangi elektron darsliklar, o'quv va o'quv–uslubiy qo'llanmalar yaratilmoqda. Ular talabalar savodxonligini oshirish, nutqini o'stirish aqliy qobiliyatini o'stirish, aqliy qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy fikrni takomillashtirish, ijodiy fikrlay olish hamda ta'lim tizimlari orasidagi uzviylikni taminlashga qaratilmoqda. Ma'lumki ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish nafaqat

ta'limiy axborotlarni yaxshilash balki, yangi axborot texnologiyalari elementlarini ham o'zlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa chet tillarini o'rganishda kompyuterlar o'qituvchining mehnatini onsonlashtirib, dars jarayoni samaradorligini oshirishini alohida takidlash zarur. Yaxshi multimediyali dasturlarni to'g'ri maqsadga yo'naltirilishi zarur, chunki o'quv materialini aniq bir mavzuni yoritib olishi, dastur o'quv jarayonining barcha komponentlarini qamrab olishi shart.

Zamonaviy texnik vositalarning ta'lim jarayoniga kirib kelishi ta'lim jarayonini zamonaviylashtirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Talabalar qaysi sohada o'qimasinlar chet tillarni zamonaviy texnik vositalar orqali o'rganish ularning oldiga qo'ygan maqsadlariga yetishda intensiv vosita bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kun talaba ta'lim beruvchining ma'lum bir ma'lumotni tayyorlab talabalar e'tiboriga yetkazishini passiv holda kutib o'tirmaydi, aksincha u bu ma'lumotni ta'lim beruvchidan avvalroq egallab olgan bo'lishi ehtimoli yo'q emas, shuning uchun ta'lim beruvchi darsga kirishdan avval har tomonlama tayyorgarlik ko'rib, yangi innovatsion texnologiyalarni mukammal egallab kirmog'i darkor.

Ta'limni yangi innovatsion texnologiyalari haqida gapirar ekanmiz "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, hamda O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash milliy dasturini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida"gi farmonini bajarish to'g'risidagi barcha harakatlarimiz yetuk pedagog kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirish kabi muhim masalalarga e'tibor qaratamiz. [1.85]

Yetuk pedagogik mahorat va keng ilmiy saviyaga ega bo'lish yangilikni his qila olish davr bilan teng hamnafas bo'la bilish hozirgi zamon o'qituvchisining eng asosiy vazifasidir.

Mana shu fikrlarimizdan kelib chiqib, biz talabalarimizni chet til o'qitishda eng ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitishni amalga oshirishimiz zarur.

1.2 TEXNIK VOSITALARNING TURLARI TASNIFI.

Ta'lim jarayonining maqsad va vazifalarini samarali amalga oshirishni ta'minlovchi vositalar ta'lim vositalari deb yuritiladi. Ta'lim jarayonining eng oson yo'l bilan har tomonlama sifatli amalga oshirilishida esa texnik vositalarning o'rnini beqiyosdir. O'qitishning dastlabki bosqichlarida yoshi kichig o'quvchilarga bu usulni yaxshi samara beradi, biroq yoshi katta o'quvchilar bilan ishlashda bir oz zerikarli tus ola boshlaydi. Bu holatlarda darslarda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanib talabalar e'tiboriga turli xil video kliplar yoki videolavhalar taqdim qilish mumkin. Bu talabalarda yangi g'oyalar paydo bo'lishini va uni kengaytirib o'z tasavvurida so'zlashga ishtiyoqini oshiradi, bu esa til o'rganishda juda muhimdir. Darsni samarali bo'lishi uchun darsdagi texnik vositalarning mavjudligi va ulardan maqsadli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalombor texnik vositalarga inson tafakkuri va jismoniy harakatlari natijasida bunyod bo'lgan sun'iy moddiy narsalar krishini malum qilishimiz lozim. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqanda eng asosiy texnik vosita bu o'quv xonasi auditoriya yoki laboratoriya. Keyingi zaruriy texnik vositalar: o'quvchi va talabalarning partasi yoki stol stullari. Hattoki yozuv doskasi yozuv bo'ri o'qituvchining ish stoli ham darsni tashkil etishdagi muhim texnik vositalardan hisoblanadi. Avvallari texnik vositalar deganda o'qitishning texnik vositalari tushunilar edi. Endilikda majmular nazariyasi ta'lim tarbiya jarayoniga kirib kelgandan keyin, texnik vositalar deganda darsni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan suniy moddiy narsalar tushunilmoqda Avvallari o'qitishning texnik vositalari deb nomlangan narsalar shu kunda axborot texnologiyalari deyilmoqda. Axborot texnologiyalarining o'rnini va ahamiyati esa rivojlanayotgan ta'lim tizimimizni yuqori bosqichga yetaklovchi eng ilg'or tayanchlarimiz bo'lib xizmat qilmoqda. Bu hususida chet el olimlaridan biri L.V. Shcherba shunday fikr bildrgan: "zamonaviy ta'limni tashkil etishdan qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish,

ular da malum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darjasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni talab etadi"- deya ta'kidlaydi bundan tashqari u chet tillarini o'qitishdan maqsad kishilar jamoasiga xos bo'lgan nutq faoliyatini o'rgatishdan iborat deb aytib o'tadi.

Chet tilini o'qitish tizimi joriy qilingan ondan buyon bu jarayonni samarali tashkillashtirishga yuqori darajada etibor qaratilmoqda. Avvallari chet tilini o'qitishda Gramoplastinka, magnitafon, radeopriyomnik, fotogramma diopozitivlar, ovozli diafilmlar kabi texnik vositalardan keng foydalanilgan. Gramoplastinkadan chet til talaffuzini, intonatsiyasini, leksikasini, grammatikasini o'rgatishda, o'qish texnikasini mukammallashtirishda, tinglab tushunish va gapirish malakalarini rivojlantrishda keng qo'llanilgan.

Gramoplastinkaning roli ayniqsa talaffuzni va tinglab tushunishni o'rgatishda katta hisoblangan. Tinglovchining gramoplastinkadan aktyor, diktora va fonetistlarning namunalari nutqlari tinglab tushunish va talaffuz malakalarini o'strish uchun taqlid qilish na'munasiga ega bo'lishgan.

Gramoplastinka yordamida turli til materiallari, masalan, tovushlar, bo'g'inlar, so'zlar, so'z brikmalari, jummlar, mikromatnlar, she'rlar, ashulalar asosida mashqlar bajarilgan. Bular tinglash mashqlari, tinglash o'xshatish mashqlari, tinglash-farqlash mashqlari bo'lgan. O'quvchilar diktordan so'ng unga taqlid qilgan holda takrorlashga oid mashqlarni bajarishlari mumkin edi.

Gramoplastinka turli kishilarning nutqini masalan, erkak va ayol, ingichka va yo'g'on ovozi, yosh yoki keksaning ovozi, sekin, o'rtacha va tez tezlikdagi nutqini tinglash imkoniyatini bergan. Bunday mashqlarni bajarish o'quvchini tabiiy muomila jarayoniga tayyorlagan.

Magnitafon ham shunday muhim texnik vositalardan hisoblangan. U ta'lim jarayonida keng tarqalgan texnik vositalardan biri edi. Magnitafondan foydalanish hech qanday qinchilik tug'drmagan. Ovozni yozib olish juda sodda

yo'l bilan amalga oshirilgan. Buning uchun faqat magnitafon va tasmasi kifoya qilgan. Yozib olishni o'qituvchi-yo o'quvchi amalga oshirishi mumkin bo'lgan.

O'quvchi nazorat maqsadida o'z nutqini yozib olishi va o'qituvchining ishtirokisiz magnitafon bilan mustaqil ishlashi mumkin edi. Bu imkoniyat gapirish ko'nikma va malakalarni shakllantrishni osonlashtirgan. Magnitafon ta'lim jarayonini individuallashtirishni imkonini bergan. Magnitafon til materialining barcha turlari (fonetika, leksika, grammatika) bilan ishlashda keng qo'llanilgan hamda ta'limning barcha bosqichlarida; til materyali bilan tanishtirish, mashq qilish va nutqiy amalyot jarayonida foydalanilgan. Bundan tashqari magnitafondan foydalanish nutq faolyatining barcha turlariga o'rgatishda yaxshi samara ko'rsatgan.[11.72.]

Magnitafondan auditoriyada, laboratoriyada va uyda foydalanish mumkin bo'lgan. Ovozli Diafilm va diapozitivlar ham shunday texnik vositalar tarkibiga kiradi. Ular o'zida tinglash va ko'rish vositalarini mujassamlashtirgan. O'rta maktablarda maxsus o'quv diafilmlardan tematikaga oid material tuzilgan va ma'lum darslik uchun qo'shimcha manba hisoblangan. Tematik diafilmlardan tashqari suvjet diafilmlar ham qo'llanilgan. Bularga ertaklar, ibratli hikoyalar va boshqalarni kiritish mumkin. Ko'pchilik diafilmlar ovozsiz ishlab chiqarilgan. Bunday diafilmlardan foydalanilganda o'qituvchi kadrlarni tasvirlagan yoki kadrlarning tasviri oldindan magnit tasmasiga yozib qo'yilgan. Har ikki holda ham ekrandagi tasvirni ifodalash uchun oldindan tayyorlab qo'yishi va bu til materiali o'quvchilar bilimiga va tasvirga mos bo'lishi kerak bo'lgan.

Radeopryomnik ham chet tilini o'qitishda qulay vositalar sirasiga kirgan. Radeo eshittrishning asosiy qulaylik tomoni shundan iboratki, u ko'p sonli til sohiblarining nutqini eshittrish imkonini bergan. O'rta maktab sharoitida radeo uzeldan foydalanish imkoni mavjud. Maktab radeouzeli eshittrishlaridan dars paytida, sinfdan tashqari tadbirlarda va tanaffus paytlarida foydalanishgan. Radeoeshittrish materyalining qimmatini shundaki, u maktab hayotining dolzarb voqealari haqida hikoya qiladi, turli qo'shiq, sher, hikoya voqealar haqida habar beradi. Bu tinglovchilarda qiziqish uyg'otgan va ularning tinglab tushunish

qobilyatini o'zgarishga katta yordam ko'rsatgan. Mana shunday texnik vositalar yordamida chet tilini o'qitila boshlangan va ular ta'lim samaradorligini katta yordamchi vositalari bo'lib hizmat qilgan. Shu sababli ham chet tilini o'qitishda zamonaviy yunalishni tashkillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada yuqorida keltrib o'tkanimizdek mamlakatimiz prezidenti tomonidan alohida e'tibor qaratilib, turli shart sharoitlar yaratilib berilmoqda. Rivojlanib kelayotgan yosh avlodni chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshshirishda barcha imkoniyatlarning yaratilib berishilishi davlatimiz tomonidan ta'minlanmoqda. Chet tilini o'qitishda yuqorida keltrib o'tkan texnik vositalarimizdan tashqari turli hil zamonaviy texnik vositalar ta'lim jarayoni uchun taqdim qilindi va foydalanishga topshirildi. Bunday o'qitish tizimini esa multimediyaviy ta'lim tizimi deb atala boshlandi. Multimedia tushunchasi 1988-yilda Yangi texnologiyalarni amaliyotda tatbiq etish va ulardan foydalanish muammolari bilan shug'ullanadigan yirik Yevropa Komissiyasi tomonidan shakllantirilgan.

1945-yilda amerikalik olim Vanniver Bush "MEMEX" nomli xotirani tashkil qilish kontsepsiyasini taklif qilgan, bu esa multimedia texnologiyalarini rivojlanishining g'oyaviy sababi bo'ldi. Bu g'oyaga ko'ra axborot qidirish jarayoni formal belgilar, ya'ni nomerlar, indekslar yoki alfabet tartibi bo'yicha emas, balki axborotning mazmuniga qarab amalga oshiriladi. Bu g'oyalar keyinchalik kompyuterda amalga oshirilganda gipermatn tizimlari, ya'ni matnli ma'lumotlar kombinatsiyalari bilan ishlash tizimini paydo bo'lishiga olib keldi. Keyinchalik esa gipermedia tizimlarining (grafika, tovush, video va animatsiya bilan birgalikda ishlash tizimlari) rivojlanishiga sababchi bo'ldi. Gipermatn va gipermedia tizimlarining birgalikdagi rivojlanishi multimedia yo'nalishining kelib chiqishiga olib keldi. Shunday qilib multimedia o'z ichiga gipermatn va gipermedia tizimlarini qamrab oladigan fan.

Ammo 80-yillar oxirida multimedia texnologiyalariga qiziqish mashxur amerikalik kompyuter mutaxassisi biznesmen Bill Geytsning nomi bilan bog'liq. U ("National Art Gallery London") nomli dasturiy mahsulotni yaratgan. Bu multimedia

dasturida muzeyning ma'lumot omborlaridan foydalanilgan. Bunda turli muhitlardan – tasvir, tovush, animatsiya, gipermatn tizimi namoyon qilingan.

Aynan mana shu multimedia dasturi o'z ichiga multimedyaning uchta asosiy tamoyilini qamrab olgan.

1. Axborotni odam qabul qila oladigan bir nechta muhit yordamida tasvirlash. (multi –ko'p, va media - muhit);
2. Foydalanuvchi tomonidan —mustaqil qidiruv asosida dastur chegaralaridan chiqib ketmagan holda, o'zining mustaqil usullarini qo'llash;
3. Navigatsiya vositalari va interfeys dizaynidan foydalanish.

Multimedia texnologiyasi bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga imkon beradi: matn, grafika, animatsiya, videotasvir va ovoz. Multimediali texnologiyaning eng muhim xususiyati interfaolik – axborot muhiti ishlashida foydalanuvchiga ta'sir o'tkaza olishga qodirligi hisoblanadi.

Multimediya vositalar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Ma'lumotnomalarni audio (nutqli) va video kiritish va chiqarish qurilmalari:
- Yuqori sifatli tovushli (sound) va video (video) platalar, video qamrash platalar (video grabber), ular magnitafondan yoki videokameradan tasvirni oladi va uni kompyuterga kiritadi:
- Yuqori sifatli kuchaytirgichli , tovush kalonkali, katta videoekranli akustik va video qabul qiladigan tizimlar:
- Skanerlar (kompyuterga matnlarni va rasmlarni avtomatik kiritish imkoniyatini beruvchi vosita):
- Yuqori sifatli printer va platterlar:
- Multimediya vositalariga yuqori darajada bo'lgan ko'pincha tovushli va video ma'lumotlarni yozish uchun ishlatiladigan optik va raqamli videodisklardagi katta sig'imli tashqi eslab qolish qurilmalari ham kiradi. [15.187.]

Juda yuqori darajali raqamli videoproektorlardan foydalanib mashg'ulot o'tkazish an'anaviy mashg'ulot o'tkazish texnologiyasidan tubdan farq qiladi.

Axborotni elektron ko'rinishida ifodalashning yangi, juda kuchli vositasi bo'lgan multimediya tizimi orqali mashg'ulot o'tkazishda avvalo dasturlar to'plami imkoniyatidan foydalanib o'qituvchiga berilgan vaqtdan unumli foydalangan holda mashg'ulot loyihasini ishlab chiqish zarurdir materialni qanday ko'rinishida va qaysi tartibda olib borishni o'zi tanlaydi.

Mashg'ulotlar taqdimoti ko'rinishida ifodalanadi, taqdimotlar esa slaydlardan iborat bo'lib, maxsus dasturlar orqali barcha multimediya tizimidan foydalangan holda tashkil etiladi, ya'ni axborotni turli formalarda: matn, grafika, rasm, animatsiya, video-ifoda etish bilan mashg'ulot o'tkaziladi.

Barcha materiallarni CD kompakt disklarda saqlab foydalanish ancha qulaydir.

Mashg'ulotlar elektron variantlarda tashkil etilganligi sababli talabalarga, o'quvchilarga konspekt yozish holati bo'lmaydi. Shunday qilib o'quv jarayonini bunday rang-barang usul va vositalar yordamida olib borilishi materialning o'zlashtirish sifatini va ko'rsatkich darajasini ancha oshiradi.

O'zlashtirish ko'rsatkich darajasini tezkor ravishda o'zaro (o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida) aloqa o'rnatish orqali aniqlash mumkin

Yuqori darajadagi mashg'ulotlar "lektor" tizimi orqali amalga oshirilishi mumkin. "Lektor"- apparatlar va dasturlar kompleks to'plami bo'lib, auditoriyada o'qitishning zamonaviy kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish tizimidir. Lektor tizimi tarkibiga maxsus dastur bilan ta'minlangan kompyuter va interfaol doska (whiteboard) to'liq avtomatlashtirilgan raqamli proektor va elektron qalam kiradi. [13.76.]

Bulardan foydalangan holda kompyuterda saqlangan axborot (grafik va video)lar yordamida mashg'ulot o'tkaziladi. Raqamli (elektron) qalamdan foydalanib kompyuterga yaqinlashmasdan turib, sichqoncha yordamisiz uni boshqarish mumkin. Buning uchun shu tizimda mashg'ulot o'tkazuvchi bir marta mashg'ulot o'tkazishi kifoya. Dastur o'qituvchining ovozini va doskadagi yozuvlarni shu ketma-ketlikda xotiradi saqlab qoladi.

Chet tili muallimining kasbiy tayyorgarligi tizimida uning metodik omilkorligi alohida o'rin tutadi Metodik tayorgarlik bo'lajak muallimning kasbiy pedagogik tayyorgarligida yakuniy bosqich sanaladi Chet tili muallimi bo'lishni niyat qilgan talabani kasbiy faolyati uchun ikkita o'zaro bog'liq kasbiy malaka zarur bo'ladi

a) chet tilidagi nutqiy faolyat turlarida kommunikativ malakaning;

b) muayyan sharoitda ushbu nutqiy faolyat turlarini o'rgata olish malakasining shakllanganligi. Malakalarning ikkinchi toifasini hosil qilishda o'quv rejasidagi barcha fanlar ishtirok etadi, binobarin oliy ta'limning boshidan ohirigacha hamma o'quv predmetlarini o'rganish mazmuni bo'lajak muallimning metodik tayyorgarlik tizimini yaratilishini kafolatlaydi. Muallimning zamonaviy tayyorgarligi nafaqat davr talabiga, shuningdek fan texnika taraqqiyoti bilan hamohang bo'ladigan istiqboldagi ta'limga ham mos kelishi darkor Ilmiy izlanishlar natijalariga binoan ta'lim samarasiga o'quv dasturlari va darsliklar sifatidan ko'ra muallim tayyorgarligi darajasi ko'proq ta'sir o'tkazadi. So'ngi yillarda o'tkazilgan ilmiy-nazariy anjumanlarda chet tili muallimiga bog'liq metodik tayyorgarlikning takomillashtrish zaruriyati alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Talabalarni guruhlarga bo'lib ularga videolavhadan turli qismlarni rasmi qotirilgan holatlarda tavsiya etiladi. Guruhlar o'z rasmi lavhalaridan rasm qahramonlari yoki manzara xaqida o'zlari tasavvuriga tayangan holatda qisqa vaqt ichida hikoyalar tuza boshlaydilar. Bunda har bir guruh azosi qatnashmog'i shart va ularning fikrlari bir-birlari bilan bog'liq bo'lmog'i kerak. Guruhlarning hikoyalari tayyor bo'lgandan so'ng xar bir guruh o'z hikoyasini taqdim qilishi kerak va har bir guruh a'zosi bu taqdimotda o'zi tuzgan gapni o'zi shaxsan aytishi kerak. Bu usulda ishlash talabalarni jamoa bo'lib, guruh bilan ishlashga o'rgatadi va ayni chog'da har bir talabani ishtirokini taminlaydi. Bu boshqa talabalarni fikrlarini berib, o'zi passiv holatda chetda turushiga yo'l qo'yilmaydi. Talabalarning faollashuvi chet tili o'qitishda juda muhimdir. Guruhlar o'z g'oyalarini olib chiqqanlaridan so'ng video lavhaning to'liq holati taqdim etiladi

va talabalar o'zlarini qanchalar mavzuga yaqin kelgani yoki yo'qligini tahlil qiladilar.[11.55.]

Chet tili o'qitishda bu va bunga o'xshagan juda ko'p misollarni keltirib o'tishimiz mumkin. Oddiy rasmlarni qo'lma-qo'l tarqatgandan ko'ra dars davomida videolavhadan foydalanish o'z maqsadlarimizga erishishda intensiv yordam beradi va ta'sir darajasi ham samaraliroqdir.

Bir vaqtning o'zida turli bilim saviyasiga ega bo'lgan talabalarga tayyor testlar berilishi, yangi mavzuni tushuntrishda dars sifatini fotosuratlar, kliplar kinolavhalar, videolavhalar orqali oshirish, masalan, o'quvchilar kitob matnidan turli xorijiy davlatlar haqida oddiy ma'lumot olibgina qolmay, shu davlatlarga virtual sayohat, chet davlatlarning anana va urf-odatlarini haqida videolavhalar, qo'shiqlar kliplar tomosha qilishlari mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan o'quv adabiyotlarni Axborot kommunikatsiya texnologiyaning dasturiy vositalari asosida dars jarayonini tashkil qilish berilayotgan o'quv materyallarini oson va qulay o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratadi. Birinchidan, o'quvchilar multimediyali elektron darsliklardan ta'lim muassasalarida bilim olish bilan bir qatorda ulardan mustaqil ravishda uyda, masofadan turib ham foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday imkoniyatning yaratilishi ingliz tilini o'rganishda dars jarayonini jonli tarzda tashkil qilish, yangi mavzularni o'zlashtirishni jadallashtiradi va bilim, malaka hamda ko'nikma hosil qilish bosqichlarini to'la qamrab oladi.

Til o'rgatishda quyidagi kompyuter dasturlarini qo'llash mumkin:

1. Taqdimot texnologiyasi, ya'ni mashg'ulotni ko'rgazma sifatida o'tkazish, darsda kompyuterdan foydalanishning eng oson usulidir. Buning uchun o'qituvchiga birgina kompyuter va multimedia proektor kerak bo'ladi. MS Power Point dasturi yordamida o'tilajak dars uchun kompyuterda o'qituvchining o'zi slaydlar yaratadi va ko'rgazmalar paketini tayyorlaydi. Elektron nusxa – bu o'zbek tili fani bo'yicha mavjud bo'lgan muayyan darslikning kompyuterdagi elektron

versiyasi (nusxasi) bo'lib, unda multimedia vositalaridan faqat ovoz va matn qatnashadi.

2. Elektron multimedia darsligi– aynan kompyuter vositasida o'quv kursini yoki uning bitta katta bo'limini o'qituvchi yordamida yoki mustaqil o'zlashtirishni ta'minlovchi dasturiy-metodik kompleks.

3. Elektron ensiklopediya– kuchli qidiruv tizimiga ega bo'lgan ma'lum yo'nalishdagi illyustrasiyali maqolalar, elektron xaritalar, fotosuratlar, giperhavola (gipermurojaat)lar, audio va videoizohlar, xronologik ro'yxat, foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati va hokazolardan iborat bo'lgan katta hajmdagi elektron dastur.

4. Elektron lug'at– odatdagi lug'atlar asosida tuzilgan, multimedia vositalar bilan boyitilgan dastur. Elektron lug'at turli yo'nalishda tuzilishi mumkin, undan talabning so'z boyligini oshirish, tarjima qilishda foydalaniladi.

5. O'rgatuvchi audiodasturlar, elektron lingafon kurslari umuman ikkinchi tilni o'rganuvchilar uchun nihoyatda samarali ta'lim texnologiyalaridir. To'g'ri talaffuzni o'rgatuvchi kompyuter dasturlarida animatsiya yordamida tovushning artikulyatsiya o'rni, usuli ko'rsatiladi, etalon nutq eshittiriladi, talabning o'z talaffuzi yozib kiritiladi, so'ngra u adabiy til me'yori bilan taqqoslanadi. Bundan tashqari, audiodasturlar qatoriga “Karaoke” tizimini kiritish mumkin. Undan hordiq chiqarishda yoki biror tadbirni o'tkazishda foydalanish juda qulaydir.

6. Universal test dasturi muayyan fanning biror yirik bo'limi bo'yicha test topshiriqlari va reyting tizimidan iborat bo'lgan kompyuter dasturidir. Uning qulayligi shundaki, birgina dasturiy ta'minot asosida turli xil test sinovlarini o'tkazish, ya'ni faqat matnni o'zgartirib, dasturni har xil mavzularda qo'llash mumkin.

7. Elektron virtual kutubxona–multimedia xonasining keng imkoniyatlaridan yana biri, elektron nusxa yoki elektron multimedia darsliklari mujassamlangan, tarmoqqa ulangan kutubxona.

8. Masofaviy ta'lim– bu masofadan Internet tarmog'i orqali o'qitish usuli

bo'lib, uning asosida respublikamizda ma'lum sohalar bo'yicha test-tajribalar o'tkazilmoqda. [15.93.]

I-III TURLI TA'LIM BOSQICHLARIDA TEXNIK VOSITALARNING ISHLATILISHIGA QO'YILGAN TALABLAR.

Darslik va o'qituvchi tomonidan beriladigan ma'lumot ilmiy asoslangan bo'lsada, bunday vositalar orqali tarqatilayotgan axborotlarga nisbatan ta'sirchanligi sust yani oq-qora rangdagi darslik, o'qituvchining bir xil usuldagi ma'ruzasidan ko'ra yorqin ranglardagi bezakli rasmlar, turli personajlar, vositalar, jimjimador liboslarda tabassum bilan murojaat qiluvchi boshlovchilar bolalarning diqqatini ko'proq jalb qilmoqda. Tasvirning insonga hush yoquvchi musiqa orqali berilishi uchun ta'sirchanligi yanada oshirmoqda. Aynan shu sabab maktab ta'limi oldiga yana bir vazifa ayniqsa tasvirli axborotlarni to'g'ri qabul qilish ularni solishtirib foydalisini ajratish olish, sifat va saviyasini baholash, tanqidiy tahlil qilish yashirin ma'nosini tushuna olishga o'rgatishdek dolzarb masala qo'yilmoqda. Pedagogikaning mazkur yunalishdagi muammolarni yechishga qaratilgan bo'limi "media ta'lim" deb yuritiladi. Bu vazifani amalga oshirish uchun alohida media talim darslari hozircha o'quv rejasiga kiritilmagan. Umumta'lim maktablari uchun tasdiqlangan tayanch o'quv rejasida ajratilgan soatlar bolaning yoshi va psixologiyasi xususiyatlarini hisobga olgan holda haftalik o'quv yuklamasi belgilab berilgan. Yangi yo'nalishlar kurslarni o'quv rejasiga alohida fan sifatida kiritish o'quvchilarda ortiqcha zo'riqlashlarni vujudga keltradi. Shunga ko'ra mediata'limni umumta'lim fanlari bilan integratsiyalashtirilgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Xorijiy tillarni o'rgatish ta'lim jarayonini bir tizimga solib loyixalashtirish va rejalashtirishni, buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan xorijiy til o'qituvchilarini tayyorlashni taqoz qiladi. Binobarin, chet tili o'qituvchisi mutaxassisligini tayyorlashda ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish tizimiga xos quyidagi vazifalarning amalga oshirilishi talab qilinadi:

- bo'lajak xorijiy til o'qituvchilariga ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishning toifa va qoidalarini, usullarini o'rgatish;

- ularda tahlim jarayoni natijalarini bashoratlash va loyihalashtirish to'g'risida tushuncha, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

- ularga tahlim texnologiyalarining kontseptual asoslari - zamonaviy pedagogik va psixologik fanlarda ishlab chiqilgan ilfor foyalarni singdirish;

- bo'lajak chet tili o'qituvchilariga tashkil qilinadigan o'quv jarayonining maqsadini belgilashni o'rgatish;

- ta'lim berish modellari orqali rejalashtiriladigan natijalarni kafolatlashga o'rgatish;

- ta'lim jarayonining natijalarini bashoratlash, loyixalashtirish, rejalashtirish, nazorat va baxolashga, bu jarayonni uzluksiz va muntazam kuzatish – monitoring qilishning vosita va usullarini o'rgatish.[14.123.]

Integratsiyalashgan mediata'lim quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Ommaviy axborot vositalari orqali uzatilayotgan axborotlarni idrok qilish va qayta ishlashga o'rgatish;
- Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, u yoki bu axborotning yashirin ma'nosini tushuna olish OAV tomonidan shaxs ongining boshqarishiga qarshi turushni o'rgatish;
- Maktabdan tashqarida olingan axborotni ta'lim mazmuniga singdirgan holda olib borish;
- Turli texnik vositalar yani kompyuter modem multimediyalardan foydalangan holda zaruriy axborotni qidirib topish tayyorlash va uzatish va qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish. Media ta'lim o'quvchilarni tayyorlaydigan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat Ta'lim Standartlari talablariga ham mos tushadi. Ma'lumki mazkur standart o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishni taqazo etadi. Tajriba-sinovga berilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarida tayanch kompetensiyalar soni oltita bo'lib ularni qaysi fan o'qitilishidan qat'i nazar o'qituvchilar darsda va darsdan mashg'ulotlarda

shakllantiradilar. Tayanch kompetensiyalaridan biri axborot bilan ishlash kompetensiyasidir. Unda:

- Mavjud axborot manbalaridan telefon kompyuter elektron pochta va boshqalardan foydalana olish;
- Media vositalardan zarur axborotlarni izlab topish saralash qayta ishlash uzatish ta'minlash va foydalanishda media ta'limiga rioya qilish;
- Ma'lumotlar bazasini yaratish asosiylarini tanlay bilish va ularni tahlil qila bilish;
- Kundalik faolyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish ko'nikmalarini rivojlantradi;

Brinchi bantda keltrilgan kompetensyani shakllantrish bevosita axborot madanyati bilan bog'liq. Bunda axborot madaniyatining quyidagi tashkil etuvchilariga alohida ahamyat qaratilishi zarur;

- Kompyuter savodhonligi asoslarini bilish va axborotlashtrish qonunyatlarini tushunish;
- Oldiga qo'yilgan masalaning yechimini topish uchun axborotni izlash va tanlashni tashkil etish;

Olingan axborotni kundalik amaliy faolyatida qarorlar qabul qilishda foydalanish. Yuqorida keltrilgan media ta'lim ko'nikmalariga o'rgatish va ularda axborot madanyatini shakllantrishda pedagog o'quvchilarning yoshi va psixalogik xususyatlarini hisobga olish va shunga mos ravishda o'qitish texnologyasini tanlashi kerak. Bunday texnologyalar tarkibida tanqidiy tafakkur qilish aqliy xujum muammoli masalar yechish baxs munozara rolli o'yinlar bo'lishi darslarni samarali tashkil etishga imkon beradi. O'yin texnologyalarining afzalligi shundaki bola kichig yoshdanoq tabiatan o'yinqaroq bo'ladi. Bolalar o'yinda majburiy holda emas balki o'zlari hohlab ixtiyoriy tarzda qatnashadilar. Ma'lumki o'yin diqqat, xotira fikrlash topqirlikning rivojlanishiga imkon yaratadi va mustaqil tarzda oldiga qo'yilgan muammo hamda masalani xal qilish ko'nikmalarini shakllantradi. Pedagog o'yin mazmunini boshqarish orqali shaxsning ijoyib xislatlari

rivojlanishini rag'batlantradi, xissiyotlarini boshqarishga o'rgatadi. Media ta'limni o'yin texnalogyasi orqali amalga oshirishda kichik sahna asari teatrlashtirilgan darslardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bundan tashqari chet tiini o'rganishda tinglab tushunish mashqlarining ahamiyati haqida fikrlarimizni bayon etib o'tishimiz lozim. Chet tilini o'rganishga yordam berish maqsadida avvalombor kerakli matni tanlash lozim, matn bo'yicha qiziqarli, hayotiy savollar berish, ba'zida unda uchraydigan yangi so'zlar manosi o'rgatish, tinglab tushuniladigan matn mazmuniga taaluqli topshiriqlar berilishi maqsadga muvofiqdir. Matni tinglash jarayonida beriladigan vazifa va topshiriqlar asosiy g'oyani topishga, ma'lum detallarni izlashga undaydi. Masalan, savollar, jadvalni to'ldirish, to'g'ri noto'g'ri bayonotlar, gaplarni kerakli so'zlar bilan to'ldirish shular jumlasidandr. Matni tinglagandan keyin beriladigan vazifalar o'quvchilar o'z fikr mulohazalarini, xis tuyg'ularini bir-birlariga bildira olishlari va ko'pchilik oldida erkin ifodalay olishlari lozim. Shuningdek o'quvchilar tinglagan matni yoki badiiy asarlarni yoki tinglab tushunishni hohlashlari va nima uchun aynan shu matni tanlaganlarini muhokama qilishlari mumkin. Tinglab tushunish vositalari yordamida chet tillarini o'rganish o'quvchilarda zaruriy ko'nikmalarni rivojlantirib, o'rganilayotgan chet tilidagi so'zlar talaffuzi hususiyatlariga e'tiborini jamlashda katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy kompyuter auditoriya mashg'ulotlari eng qulay texnik vosita hisoblanadi. Chet tillarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchi-talabalar umumiy madaniyatini rivojlantirishda yanada ya sifatli darajaga ko'tarish hamda ularning kompyuter texnikasi va chet tillarini sifatli o'zlashtirish imkonini beradi. Chet tili darslari jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, talabaning tilga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish va ularning tildan egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalarini yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun chet tillar ta'limida quyida turli xil yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan;

- Kompyuter tehnalogyasi [internet resurslari]

- Test topshiriqlarini kompyuter orqali amalga oshirish, elektron habarlar, elektron darslik, o'quv qo'llanmalar, lug'atlar yaratish.
- Chet tillarni o'qitishda internet yordamida bevosita masofaviy talimdan foydalanish.
- Talabalarning o'quv faolyatini, mustaqil ishlarini tabaqali tashkil etish hamda kompyuterli nazorat tashkil etish.
- Teknik vositalardan [video, audiomagnitafon, proektorlar]dan foydalanish
- Ko'rgazmali qurollardan foydalanish [mavzular sxemasi, mavzular bo'yicha rasmlar] Teknik vositalar yordamida dars mavzulari bo'yicha tag'dimotnomalarni yoritish kabilardir.

Tillarni avtomatik o'qitish tizimi hisoblangan kompyuter lingvodidaktikasida quyidagi turdagi topshiriqlardan foydalaniladi:

- a) Close the gap– Bo'sh kataklarni to'ldiring topshirig'i. Bunda semantika grammatika sohalarini o'rganish ko'zda tutiladi;
- b) krossvordlar va leksik o'yinlar;
- c) elektron pochtdan foydalanib bajariladigan mashq (turli xatlar yoki elektron hikoyalar tuzish asosida - maze) word-hunting;
- d) matnlarning avtomatik tarjimai va tahriri bo'yicha mashqlar;
- e) grammatikaning turli bo'limlari bo'yicha diagnostik testlar o'tkazish;
- f) CD-ROMda standart o'qitish kurslaridan foydalanish.

Ingliz tilini o'rgatishga mo'ljallangan quyidagi oquv dastrulari mavjud:

TOEFL tizimi –ingliz tilini avtomatik o'qitishga mo'ljallangan eng rivojlangan xalqaro dastur. U dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida amal qiladi, u inglizcha Test Of English as a Foreign Language so'zlarining qisqartmasi bo'lib, ingliz tilidan xorijiy til sifatida sinov standarti hisoblanadi. Bu tizim ingliz o'rgatish bilan birgalikda o'zlashtirilgan bilimlarni diagnostika qila olish imkoniyatiga ham ega.[21]

IELTS– TOEFL tizimiga o'xshaydigan avtomatik til o'rgatish va diagnostika qilish tizimi. U grammatika, lug'at, o'qib va eshitib tushunish, to'g'ri jumla qurish kabilar yuzasidan bilimlarni baholaydi.

1. ENGLISH FOR ALL(Hamma uchun ingliz tili)– O'zbekistonda yaratilgan avtomatik o'qitishga asoslangan o'quv dasturi. Unda o'quvchiga ingliz tilidagi tovushlar va ularning talaffuzi audio effektlar yordamida tushuntiriladi, qisqacha ingliz tili grammatikasi bayon etiladi, mashqlar va testlar yordamida bilimni tekshiradi. Ushbu o'quv dasturining afzal tomoni shundaki, unda o'qitish tizimi vide o effektlar bilan ham boyitilgan, ingliz tilida multfilmlar kiritilgan va inglizcha qo'shiqlar karaoke bilan ta'minlangan.

WAY TO PERFECTNESS (Mukammallik uchun yo'l) – ingliz tilini avtomatik tarzda o'qitishga mo'ljallangan o'quv dasturi bo'lib, bunda ham multimedia bilan ta'minlangan. Ushbu dasturning yuqoridagilardan farqli tomoni shundaki, unda dastur “elektron” (“virtual”) o'qituvchi bilan ta'minlangan.

REWARD– bir necha yil davomida o'qitishga mo'ljallangan til o'rgatish tizimi.

PROFESSOR HIGGINS АНГЛИЙСКИЙ БЕЗ АКЦЕНТА- fonetik trenirovka, ingliz tilida aksentsiz talaffuz me'yorlarini o'rgatuvchi tizim.

REPETITOR ENGLISH- Moskvadagi ingliz tilini o'rgatuvchi xalqaro markaz tashabbusi bilan yaratilgan. Mazkur tizim ingliz tilini turli xil zamonaviy metodlar va elektron metodik ishlanmalar paketi yordamida avtomatik tarzda o'rgatishga mo'ljallangan.

EUROPLUS– uch yil davomida ingliztilini bosqichma-bosqich (Elementary, Intermediate, Upper intermediate, AdvancedEnglish) tizimli tarzda o'rgatishga asoslangan avtomatik o'qitish tizimi Bugungi kunda o'qitishni kompyuterlashtirish nazariyasini ishlab chiqish, haqiqatan ham, o'quv faoliyatining samaradorligini oshiradigan, o'rganilayotgan mavzuga nisbatan ijobiy munosabat va qiziqishni shakllantiradigan ta'limiy elektron ishlanmalarni yaratishning umumiy va xususiy mezonlarini belgilash zarurati paydo bo'ldi. Hozirgi paytda Rossiya, Fransiya, Yaponiya, Kanada va boshqa mamlakatlarda ta'limiy-elektron ishlanmalarni

yaratish konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borilmoqda. Konsepsiyada ishlanmalarning mohiyati, ularni yaratish, tekshirish va qo'llash tartibi belgilanadi. Mutaxassislarning fikricha ta'limiy-elektron ishlanmalar asosan texnik, pedagogik, metodik talablarga javob berishi zarur Ular shunday talablarga mos kelsagina, ta'lim jarayoni qo'llanilishi mumkin. Til o'qitishning avtomatik tizimi yildan yilga rivojlanib yangi effektlar bilan boyib bormoqda Bu tizimni yanada rivojlantirish, kompyuter lingvodidaktikasini yangi dastruriy ta'minotlar va pedagogik texnologiya, bilimlar diagnostikasi bilan boyitish kompyuter lingvistikasi fanining dolzarb vazifalaridan sanaladi.[25]

I BOB YUZASIDAN XULOSA

Milliy dasturning xususiyatlaridan biri xorijiy tillarni puxta egallaydigan, O'zbekistonning xalqaro andozalardagi taraqqiyotini ta'minlay oladigan, dadil, mustaqil tafakkurli, malakali, bilimli va ma'nan boy mutahassis kadrlarni tayorlashdan iborat. Butun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan, o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyati asosiy o'rin tutadi. Oliy ta'lim muassalari yoshlarni har tomonlama yetuk qilib tarbyalashi, shu bilan bir qatorda chet tilini ham mukammal o'rganishlari zarur. Xorijiy tillarni o'rgatishning ixtisoslashtirilishi talabaga umuman tilni o'qitish emas, balki bu talabning bo'lajak mutaxassisligiga asoslangan taxminan bir milliardga yaqin aholisi gapiradigan xalqaro tildir. U bizga fan texnika va madaniyat sohasidagi so'ngi yangiliklar bilan tanishish imkoniyatlarini beradi.

Shu o'rinda yurtboshimiz aytgan quyidagi so'zlarni ta'kidlab o'tish o'rinlidir: "Bizning buyuk dyorimiz buyuk allomalarni yetishtirgan. Butun ilm ahli ular bilan faxrlanadi. Ular asos solgan milliy ilmiy tafakkurning analarini davom ettirish va boyitish uchun bizda hamma shart sharoitlar bor".

Bitiruv malakaviy ishimizning birinchi bobida zamonaviy ta'lim tizimini tashkil etishda, bo'lajak chet tili o'qituvchilarining metodik tayyorgarliklari uchun texnik vositalarning yani multifikatsion o'qitish tizimining muhim ahamiyati va o'rni hususida ma'lumotlar berib o'tdik. Bu borada multimediya vositalarining chet tilini o'qitishda o'qituvchi uchun eng asosiy yordamchi bo'lib hizmat qilibgina qolmay, hattoki o'quvchilarning mustaqil tarzda til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirib, qobiliyatlarini kuchaytrishga yordam berib kelmoqda. Yaxshi darsni tashkil qila olish va o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishni uyg'ota olish o'qituvchidan katta mahorat va bilim saviyasini talab etadi. Bundan bilim saviyaga ega bo'lish uchun esa bo'lajak pedagog o'z ustida tinmay ishlashi yangiliklarga hamohang tarzda yashashi yani nafaqat o'z yo'nalishi balki boshqa sohalar bo'yicha ham

kuzatilayotgan yangi yangi bilimlar tizimi bilan o'quvchilarini tanishtra olish qobilyatiga ega bo'lishi lozim.

Har bir chet tili O'qituvchisi uchun shuni aytish joizki ta'lim tizimida nazariy bilim berishdan ko'ra amaliy yani visual tarzda o'qitish ta'lim oluvchining nafaqat qiziqishini kuchaytribgina qolmay, uning hotirasida o'tilgan darsni qay darajada qolishini ham belgilab beradi, yani ta'lim oluvchi eshitib yoki kitobdan o'qib o'rgangan narsasidan ko'ra animatsion tarzda ko'rgan narsanini tasavvurida tez shakllantra oladi va oson eslab qoladi. Bunday tarzda darsni tashkil qilish uchun esa har qanday chet tili o'qituvchisi tehnik vositalardan [video, audiomagnitafon, proektorlar]dan foydalana olishi, test topshriqlarini kompyuter orqali amalga oshirishni, elektron habarlar, elektron darslik, o'quv qo'llanmalar, lug'atlar yaratishni bilishi talab etiladi. Chet tillarni o'qitishda internet yordamida bevosita masofaviy talimdan foydalanish, talabalarning o'quv faolyatini, mustaqil ishlarini tabaqali tashkil etish, hamda kompyuterli nazorat tashkil etish, turli kompyuter dasturlari yordamida o'z darsini qiziqarli tashkil qila olishi zarur, shu bilan birgalikda, turli ta'lim bosqichlarida texnik vositalarni qo'llanish tartibini bilishi va ularni o'quvchilarni salohyatiga qarab to'g'ri taqsimlay olishi lozim.[9.47.]

II-BOB TALIMNING TURLI BOSQICHLARIDA TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING LINGVISTIK, PSIXALOGIK VA DIDAKTIK ASOSLARI.

2.1 TA'LIMNING TURLI BOSQICHLARIDA TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING LINGVISTIK ASOSLARI.

Tildan ixtisos beriladigan oliy o'quv yurtidagi amaliy mashg'ulotlar chog'ida bo'lajak chet tili muallimining kasbiy malakalari muayyan tartib-qoidalariga binoan shakllantriladi. Til bo'yicha bo'lajak muallimni tayorlash jarayonida kvalifikatsion malakalarni singdirish yo'llarini belgilovchi o'zaro aloqador omillar majmui mazkur tartib qoidalarni tashkil qiladi. Bunday omillar psixalogik, didaktik, lingvistik, metodik guruhlarni o'z ichiga oladi. Xar qaysi guruhda bir nechtdan omillar amal qiladi.

Bo'lajak chet tili muallimining kasbiy malakalarini shakllantrishda tilga oid amaliy o'quv predmetlarining ta'limiy imkoniyatlari. Ushbu predmetlar xamda chet tili o'qitish maqsad va mazmunining o'rta va oliy maktabga tatbiqan muqoyasasi ko'rsatishicha, talabalarga lingvometodik malakalarni singdirishda amaliy predmetlarda keng imkoniyatlar mavjud. Chet tili muallimi pedagogik faolyati tarkibining hususiyatlari. Chet tili muallimining didaktik nutqi, maktab va oliy o'quv yurtidagi amaliy mashg'ulotlar, pedagogik texnika, o'quv jarayonini metodik boshqarish kabilarni hususiyatlarini aniqlashdan ma'lum bo'ldiki, qator umumiy qonunyatlar mavjud bo'lib, ular mutaxassislik bo'yicha amaliy mashg'ulotlar chog'ida talabalarning lingvometodik malakalarini xosil qilish uchun qulay sharoit, yani garov xisoblanadi. mamlakatda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi.[3.69]

Mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillar o'qituvchilari tayyorlandi, umumta'lim maktablarining V — IX sinflari uchun ingliz, nemis va fransuz tillari bo'yicha multimedia darsliklari, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rganish bo'yicha elektron resurslar tayyorlandi, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5 mingdan ko'proq lingafon kabinetlari jihozlandi.

Shu bilan birga, chet tillarni o'rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg'or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to'liq javob bermayapti. Ta'lim asosan an'anaviy uslublarda olib borilmoqda. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash yanada takomillashtirilishini taqozo etadi.

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida:

Belgilab qo'yilsinki, 2013/2014 o'quv yilidan boshlab:

respublikaning barcha hududida chet tillarni, asosan, ingliz tilini o'rganish umumta'lim maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanadi;

oliy o'quv yurtlarida ayrim maxsus fanlarni, xususan, texnik va xalqaro mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish chet tillarda olib boriladi;

umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarining oʻquvchilari va oʻqituvchilarini chet tillar boʻyicha darsliklar va oʻquv-uslubiy komplekslar bilan taʼminlash, ularni belgilangan muddatlarga rioya etilgan holda qayta nashr etish, Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamgʻarmasining aylanma mablagʻlari hisobidan bepul amalga oshiriladi.

Taʼlimni kasbga yoʻnaltrish oʻquv jarayonining ichki imkoniyatlaridan foydalanish evaziga didaktik-metodik jabhada amalga oshiriladi. Bu metodik prinsip oʻquv faolyatini shunday tashkil etishni taqazo qiladiki, unda ham oʻqituvchi, ham talabanning faolyati taqazo etadigan oʻquv-tarbyaviy vazifalarni hal etishga qaratilmogʻi lozim. Talim jarayonini va u asosida oʻquv faolyatini tashkil etish kasbiy faolyatli yondoshish asosida amalga oshirish yuksak samara beradi. Mazkur yondoshish nuqtai nazardan kasbiy yoʻnaltrilgan kasbiy jarayonini xarakteriga koʻra oddiy koʻrinishdan bora-bora murakkablashib, oʻquvchi va muallim oʻrtasidagi oʻquv faolyatini oʻzida mujassamlashtiradi.[10.207].

Taʼlimni kasbiy yoʻnaltrish samarasi uning qanchalik lingvistik, didaktik, psixologik asoslarga tayangani bilan izohlanadi. Bu fanlarning malumotlarini xisobga olish oʻquv jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish, oʻqituvchi” modeli”ning psixologik, didaktik komponentlarini aniqlash, kasbiy yoʻnalgan mashqlar tuzish, tegishli ish usullarini tanlash, kasbiy malakalarning shakllanish hususiyatlarini yoritishga imkon beradi.

Taʼlimni kasbiy yoʻnaltrishning lingvistik asoslarini til materyali qiyinchiliklarini aniqlash asosida chet va ona tillari xodisalarining oʻxshash va farq qiluvchi xususiyatlarini aniqlash, nutqiy xatolarini oʻrganish, norma tushunchasini til va nutqda farqlash, oʻquvchilarning til tajribasidagi ijobiy va salbiy taʼsir[iterferensya]ning amal qilish qonunyatlarini kabi masalalar tashkil etadi. Ularni hal qilishdan kutiladigan natijalar oʻquv materyalini lingvometodik taxlil qilish, uning qiyinchiliklarini aniqlash, ularni oldini olish yoki oqilona bartaraf etish, oʻquvchilarning, oʻzining va boshqa oʻqituvchilarning pedagogik faolyatini kuzatish, taxlil qilish va ulardan metodik hulosa chiqarish kabi kasbiy malakalarni

chet tili amaliy kursi mashg'ulotlarida shakllantrish uchun muhim omil bo'lib hizmat qiladi.

Talabalarning nutqiy, chet tili o'rganish qobilyatlari nisbati, pedagogik qobilyatlarini shakllantrish, bilim, ko'nikma va malakaning mohiyati, ularning o'zaro munosabati, shakllanish hususiyatlari, talabaning kasbiy motivatsyasi, muallimlik faolyatini egallashga talabaning tayyorgarligi, kasbiy pedagogik sohada o'zliginini anglashi va oliy o'quv sharoitiga moslashish masalalari ta'limni kasbiy yo'naltrishning psixalogik asoslarini tashkil etadi. Mazkur psixalogik omillarni tatqiq etish natijasida quyidagilar aniqlandi;

-Nutqiy va chet tilini o'rganish qobilyatlarining shakllanishi psihik jarayonlar bilan bog'liq. Chet tilni o'rganish qobilyatini rivojlantrish uchun orient va ijro qismlaridan iborat harakatlar tizimi qo'llaniladi. Tilga layoqatli talabalarga esa chet tilini o'rgatishda ijro harakatlari rivojlantriladi, layoqati bo'shroq talabalarga esa chet tilini o'rgatish har ikkala harakat turidagi, ko'proq orientr xarakatlardan foydalaniladi;

- pedagogik qobilyatlar muallim modelining tarkibiy qismlaridan bo'lib, ular ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllantriladi;

- kasbiy malakalarni shakllanishida bilim muhim o'rin tutadi. Bilimni ilmiy mezonlar asosida guruxlash, u yoki bu kasbiy malakani shakllanish ehtyojiga ko'ra bilim mazmuni va miqdorini belgilash ta'limni kasbiy yo'naltrishning muhim omillaridandr;

-metodik ko'nikma metodik malaka chet tili muallimi pedagogik faolyati tarkibiga kiradi va xarakatni egallashning ikkita turli darajasi xisoblanadi. Ko'nikma va malaka birin ketin emas, balki, muvoziy tarzda, mahsus mashqlar yordamida shakllanadi. Metodik ko'nikmalarni xosil qilish uchun faolyatning bir xildagi sharoitida qayta-qayta bajariladigan mashqlar qo'l keladi metodik malakaga esa o'zgaruvchan va asta sekin murakkablashib boradigan mashqlar tizimi qo'llaniladi, ko'nikma va malaka bosqichma-bosqich xosil qilinadi.

- motivatsiya xarakter motive va faoliyat motivini o'z ichiga oladi. Kasbiy motivatsiyani rivojlantirishda actual va potentsial motivlarni yaqinlashtirish tavsiya etiladi. Ushbu tadbir kasbiy yo'naltilgan ta'limni maxsus tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Quyida sinflarda tillararo interferensiya kuchliroq bo'ladi. Maktabda va oliy o'quv yurtining boshlang'ich bosqichida chet tilidagi tillararo intrferensiya ancha sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Uning sababi til tajribasining xali yetarli emasligidir. Demak, o'quvchilarning chet tilini egallash qiyinchiliklari, yuqori kurslarda o'qiydigan talabalarnikidan ko'ra, quyida kurslarnikiga yaqinroq turadi. Binobarin, ayni shu quyida kurslarda kasbiy-metodik maqsadlarni ko'zlab, o'zlashtirish jarayonini tillararo ongli qiyoslash yo'li bilan tillararo qiyinchiliklarni aniqlash usullarini qo'llash, ularni bartaraf etish uchun qulay sharoit mavjudligini e'tirof mumkin.[10.266.]

Oliy o'quv yurtida o'rganiladigan til materyali maktab til minimumiga kiradigan leksik, Grammatik va fonetik birliklarni o'z ichiga oladi, tabiiyki, ularning miqdori ancha kattadir. Ushbu omildan kelib chiqib, ta'lim mazmunida o'zgaritish qilmasdan, chet tili o'qitishni kasbiy yo'nalitirish imkoni bo'lmaydi. Ma'lumki, ikkala turdagi o'quv muassalarida ham o'rganilmish til normasini egallash dasturiy talab xisoblanadi. O'quvchilar til normasini kommunikativ darajada, bo'lajak muallimlar esa o'zi uchun kommunikativ va o'zgaralar uchun kommunikativ ta'limiy darajada o'rganadilar. O'quvchi va talabalarning tilini kommunikativ darajada egallash mazmuni va mehanizmlarning mos kelishi ixtisos bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda bo'lajak muallimning lingvometodik malakalarini shakllantirishga yo'llovchi omil bo'lib xizmat qiladi Chet tili o'qitish metodikasi psixologiya fani bilan uzviy aloqada bo'ladi.

Bu orqali fanda erishilgan yutuqlardan va psixologik qonuniyatlaridan o'zining o'qitish bilan bog'liq muammolarini hal qilishda foydalaniladi.

Olimlar metodikaning psixologiya fani bilan aloqasi haqida turli fikrlarni bildirganlar. I.V.Raxmonov fikricha :

- 1) psixologiyani inson nutqi faoliyatining muayyan turi sifatida o'rganishda;
- 2) metodika ta'lim tarbiya jarayonini psixologik qonuniyatlaridan foydalanib amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish yo'lida tinimsiz izlanish zarur. Shaxsning ongiga ta'sir etish yo'llarini belgilashdan oldin uning ichki aloqa elementlarini aniqlash zarur. Bular uning layoqati, imkoniyatlari, ehtiyoji, mavjud bilimlari va qobiliyatidir. Insondagi qobiliyat, layoqat o'rganilib, undagi bor bilim yoki bilim o'zlashtirish uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlar aniqlanib, uning ehtiyojiga e'tibor qaratiladi. Ma'lum maqsad asosida ta'sir choralarini belgilash bu elementlarda o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Shunday ta'sir natijasida shaxsning rivojlanishida tub o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarning qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojini aniqlab qilingan amaliy ta'sir zoe ketmaydi. Bolaning intellektual imkoniyatlari haqida birdan xulosa chiqarish yaxshi natija bermaydi. Chunki insondagi intellektual imkoniyatlar birdaniga ko'zga tashlanmaydi. U asta-sekinlik bilan ro'yobga chiqishi mumkin. Shuning uchun ham bolaga "sening kallang ishlamaydi", "sen odam bo'lmaysan" qabilidagi so'zlarni aytmaslik lozim. Bunday so'zlar bolani o'zi haqida tez xulosa chiqarib qo'yishga, o'z kuchiga ishonmaslikka, o'qish motivlarini susayib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'qituvchi o'quvchilardagi o'ziga xoslikni bilishi va shu asosda faoliyatni tashkil etishi shaxsda bor bo'lgan imkoniyatlarning ro'yobga chiqishiga sabab bo'ladi. O'qituvchi mahorati bu imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish orqali shaxs faolligini oshirishga qaratiladi. Agar o'quvchilar o'quv-bilish faoliyatiga qiziqsalar bu ta'lim samaradorligini va o'quvchilarning intellektual rivojlanish darajasini ta'minlaydi, bilimga qiziqish va ehtiyojini shakllantiradi. Ayniqsa keyingi hayot yo'lini tanlashda bu qiziqishlar asos vazifasini o'tashi mumkin.

Psixologiya nutqini tashqi, ichki, aktiv va passiv og'zaki va yozma nutqlariga ajratadi hamda o'rganadi. Metodika esa psixologiyaning xulosalariga

asoslanib o'rganiladigan materialni o'qitish usullarini ishlab chiqadi. Nutq hosil bo'lishi bilan ya'ni bosh miya faoliyati bilan shug'ullangan olimlarning fikriga ko'ra yozma nutq va og'zaki nutq doim bir-biri bilan bog'liq. Lekin shu bilan birga ularning har ikkisi o'ziga xos xususiyatga ega.

Chet tili o'qitish psixologiyasi fani chet tilini o'rgatishda til materiallarini, nutq faoliyatlarini o'rgatish, o'rganish psixologiyasini yoritmoqda. Bu esa metodika uchun zarurdir. Chunki metodika psixologiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, u psixologiyadan bilimni, ko'nikmalarni hosil bo'lishi va malakalarini oshirish yo'l yo'riqlarini o'rganadi.

Hozirgi paytda psixologik asosdagi fanlar chet tilini o'qitish metodikasini ilmiy, amaliy negizida ishlab chiqishga yordam beradi.[12.233.]

2.2. TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PSIXALOGIK ASOSLARI.

Bola tilni kattalar va o`z tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyatda ishtirok etish uchun o`rganadi, buning uchun esa unga nimalar deyishayotganini tushunishi va o`zi ham gapirishi lozim.

Bunda ona tili (bizning holatimizda – o`zbek tili) va chet tilini o`rganishning motivatsion asoslari turlicha bo`ladi. Boshqa tildagi nutqni o`rganishning asosiy motivatsiya manbai - bu muloqotga bo`lgan ehtiyojdir. Nutq harakatlarini muvaffaqiyatli qo`llash bu ehtiyojni qondiradi va asta-sekin nutqiy axloq mahoratini oshiradi. Chet til esa aynan shunday motivatsion asoslarda faqat bolaning atrofida ikki til vositasida muloqotga ehtiyojni yuzaga keltirgan holdagina kuchayadi. Shu sababli bolalarda o`z fikrlarini chet tilda tuzish va bu tildagi nutqni tushunishga ehtiyojni yaratish o`zbek bolalari uchun chet tilida nutqini rivojlantirishning muhim metodik sharti hisoblanadi.

Chet tilini o`zlashtirishning psixologik qiyinchiliklari chet tilini o`rganishga bo`lgan qiziqish sohasida emas va unga nisbatan his-hayajonli munosabat sohasida ham emas, balki psixolingvistik sohada yashiringan: ya`ni bu qiyinchilik o`qiyotgan bola ongida ikki til tizimi - chet va o`zbek tilining qanday o`rin olganligiga, shuningdek ikkinchi tilga (chet tiliga o`qitishda) bu ikki tizimning bir-biri bilan qanday munosabatda bo`lishida, ya`ni interferentsiyani bartaraf etishidir.

Har qanday til faoliyati til qurilmasi yordamida amalga oshiriladi, bu qurilma u yoki bu tilni egallagan, ya`ni tilning egasi bo`lgan har bir odamda mavjuddir.

Til qurilmasi - matnlarni tuzish va ularni tushunishda yordam beruvchi til tizimidir (yaxlit olingan tovush, leksika va grammatika tizimlari).

Bola ona tilini o`zlashtirar ekan, o`z ongida tegishli til qurilmasini shakllantiradi. O`zbek oilalaridagi bolalarda tabiiyki, o`zbek tili qurilmasi shakllanadi. Bola ona tilini egallash orqali hali to`liq bo`lmagan til qurilmasidan

foydalanishga o'rganadi, chunki u hali ko'p so'zlarning ma'nosini, ularning qanday qilib to'g'ri talaffuz etilishini bilmaydi; u hali grammatikani to'liq o'zlashtirmagan. Shuning uchun bola o'ziga moslashtirilmagan matnlarni, masalan kattalar o'rtasidagi suhbatni qabul qilar ekan, sekin-asta o'z til qurilmasining yetarli emasligi bilan bogliq muayyan qiyinchiliklarga duch keladi. Va nutqni so'zma-so'z qabul qilmaslikka o'rganib qoladi. Aslini olganda, o'z tilini to'liq o'zlashtirib olish - bu tildan foydalanish jarayonida til qurilmasini to'liq shakllantirish deganidir. Ko'p martalab qaytariladigan so'zlar yoki grammatik tuzilmalarni bola eslab qoladi va til qurilmasidagi qabul qiluvchi qismning bir elementi sifatida o'zlashtirib oladi, keyin esa u yaratuvchi qismga o'tadi: bola o'zi tuzgan so'zlarini matnda qo'llashni o'rganib oladi.

Bola bilingvizmni shakllantirgan holda uni chet tilga o'qitayotganlar shuni hisobga olishi juda muhimki, ona tilining til qurilmasi birdaniga emas, balki asta-sekin shakllanadi. 6-8 yoshli bolada garchi til qurilmasining ayrim qismlari (fonologik tizim, grammatik tizim asoslari) shakllanib ulgurgan bo'lsa-da, u hali nihoyasiga yetkazilmagan bo'ladi.

Shu tufayli bola o'z ona tilida eshitgan matnlaridan (ertak, multifilm va h.k.) bilgan tanish obrazlarga tayangan holda chet tilidagi matnni ancha tez muddatda qabul qilishni o'rganishga, ya'ni yuqorida aytilgan ko'rish obrazlariga tayangan holda uning umumiy mazmunini ilg'ab olishga qodir bo'ladi. Biroq, bola matnni tushunsa, u darhol gapira oladi deb o'ylash noto'gridir.

Matn yaratishda (gapirishda) bilingvizmni shakllantirishning ilk bosqichlarida bo'ladigan aralash til qurilmalari (bola ona tilida so'zlaydi va unga nisbatan chet tilida so'zlayotganliklarini qisman tushunadi) ishlamaydi.

Turli til qurilmalarini aralashtirib yuborish bola nutqining o'zbek tili va, ayni paytda, chet tili nuqtai nazaridan ham atrofdegilar uchun tushunarsiz bo'lishiga olib keladi. Va, bu qonuniydir: yaratilayotgan matnlar aniq bir tilga taalluqli bo'lishi lozim, chunki ular til egalarini yaratishda qatnashmaydi, balki muloqotning boshqa ishtirokchilariga beriladi.[16.88.]

Shu bois, o'zbek tilida ta'lim beriladigan bolalar bog'chalari va boshlangich sinflarda chet tilini o'qitishning pedagogik vazifalaridan biri, avvalo, bolaga aniq ko'rsatma berishdan iborat ("Sen o'zbekcha gapir!", "Endi esa chet tilida gapir!"), toki bu bolaning tegishli tildagi nutq mexanizmini yo'lga solib yuborsin. Bu o'rinda shuni e'tiborga olish zarurki, maktabgacha va kichik yoshdagi bolalarda lingvistik tajriba yetarli emas, buning oqibatida ular turli tillarda so'zlayotganliklarini bilmaydilar. Bir-biriga qo'shilgan nutq mexanizmi esa o'z navbatida, ikki til tizimining interferensiyaga duchor bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun, ikkinchidan, ta'limdagi yana muhim vazifalardan biri - interferentsiya ko'rinishlarini bartaraf eta olishdan iboratdir. Shuni unutmash lozimki, chet tilini o'rganishda bola o'z ona tilida matn tuzish borasidagi ayrim ko'nikmalarini o'z-o'zidan bu tilga ham ko'chirib o'tadi. Shu bilan birga ularda hali o'z ona tiliga nisbatan rasmiy yondashuv ko'nikmalari mavjud emas. Garchi, chet tilni o'rganishga kirishishda bolalar o'z ona tilida so'zlash borasida katta nutqiy tajribaga ega bo'lsalar-da, lekin ularda o'z ona tilida fikrlarni ifodalash usullari hali yetarli emas, shuning uchun ta'limning dastlabki bosqichida ishni ushbu ko'nikmalarni chet tilga nisbatan ham rivojlantirishdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Masalan, o'zbek bolalariga chet tilni o'qitishda ularga ayrim tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni o'rgatish, otlar va sifatlardan foydalanishni o'rgatish zarur.

Yuqorida qayd etilganlarni hisobga olgan holda, bizning nazarimizda, chet tili bo'yicha o'quv-metodik materiallarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bu materiallarda turli toifali maktablar sharoitida, ya'ni chet tilida nutqi hali yetarli darajada rivojlanmagan o'zbek bolalari ham o'qiydigan ko'p millatli maktablar sharoitida vujudga kelayotgan turli bilingvizm holatlari nazarda tutilishi lozim.

PEDAGODIDAKTIK ASOSLARI.

Chet tili o'qitish metodikasining tilshunoslik psixologiya va didaktika bilan munosabatida didaktikaning munosabati yuqoridagi fanlarga nisbatan o'zgacha metodika va didaktikaning tekshirish obyekti bitta o'quv tarbiyaviy jarayon,

Bu jihatidan o'xshash ammo didaktika o'quv jarayoni bilan umumiy shug'ullanadi. Chet tili o'qitish metodikasida o'ziga xos qo'llanishga ega.

Chet tili o'qitish metodikasi ta'lim nazaryasi didaktika bilan aloqada. Chunki metodika ham didaktika kabi ta'lim-tarbiya jarayoni bilan shug'ullanadi. Farqi shundaki, didaktika bu jarayonni umumiy ma'noda barcha o'quv predmetlariga bog'liq bo'lgan holda o'rganadi. Metodika didaktika ishlab chiqqan umumiy va politexnik ta'lim vazifalari, maktab o'quv rejai, ta'lim jarayoni ta'limning umumiy prinsiplari, metodlari, usullari asosida chet til ta'limi masalalarini belgilaydigan hal qiladi. Dars nazaryasining umumiy qonunyatalariga asoslangan holda metodika chet til darsini nazariy asoslaydi va amaliy ishlab chiqad. U chet til darslarini turlarga ajratishda va strukturasi belgilashda didaktikaning qonunyatlariga tayanadi.[13.55.]

Ma'lumki didaktik tamoyillariga nazariya va amaliyotning birligi ilmiylik, oddiydan murakkabga, faollik, onglilik, qo'lidan ish kelishlilik ko'rgazmalilik, mustahkamlilik, kollektiv va individual ish shakllarini optimal birligi tamoyillari kiradi.

Chet tili o'qitishda ta'lim samaradorligiga erishish uchun o'rta maktabda o'rganiladigan o'quv fanlarining maqsad va vazifalarini, ularning o'ziga xos tomonlarini aniqlab olish zarur.

Metodik adabiyotlarda o'rta maktabdagi fanlarni quyidagi guruxlarga bo'linadi.

Aniq fanlar: Ximiya, fizika, matematika, biologiya.

Bu guruxdagi fanlar: estetik tiplardagi fanlar bo'lib. musiqa, rasm hamda san'at kabi fanlar kiradi. Bu fanlar shaxsni har tomonlama kamol toptirishda katta ahamiyatga ega.

Bu fanlarning asosiy vazifasi ko'nikma hamda malaka hosil qilish.

Bu guruxdagi fanlarga ona tili, chet tili va rus tili fanlari kiradi. Ularning asosiy vazifasi nutqiy muloqot sistemasini yaratish va nutqiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan til vositalari va birliklarini o'rganishdan iborat.

Bular uchun yuqoridagi ko'rib o'tgan predmetlarga o'xshash qandaydir faoliyatni o'rganish emas, balki nutqiy kommunikatsiyani amalga oshirish muhimdir. Bu uchun esa til sistemasi haqida ma'lum bir bilimga ega bo'lish va uni amalda qo'llash uchun zarur bo'lgan nutqiy ko'nikma malakalar xosil qilish ushbu gurux fanlarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan 3-guruhga mansub fanlar shaxsni har tomonlama rivojlantirish va ma'lum faoliyat turiga xos bo'lgan ko'nikma malakalarni hosil qiladi. Ular uchun ham ko'nikmalar birlamchi hisoblanadi. Biroq ular nutqiy ko'nikmalar emas. Xulosa qilib aytganda tilga oid fanlarning boshqa fanlardan ajratib turuvchi asosli xususiyat shundaki xosil qilinayotgan nutq malakalari bu jismoniy faoliyat malakasi bo'lmay, balki intellektual malakadir. Ularning asosiy vazifasi kommunikativ faoliyatni oshirishdan iborat.

Chet tili o'qitish metodikasi jarayonida didaktik tamoyillardan tashqari shu fangagina xos bo'lgan metodik tamoyillarga ham ega. Ularni ikki guruhga bo'lish mumkin.

Umumiy metodik tamoyillar.

Xususiy metodik tamoyillar.

Umumiy metodik tamoyillar quyidagilardan iborat:

Kommunikativ yo'naltirilganlik.

Ona tilini hisobga olish.

Mashqlarning yetakchilik roli.

Xususiy tamoyillarga quyidagilarni kiritish mumkin.

Chet tili o'qitishni nutq namunalari asosida olib borish.

Til hodisalarini o'rganish ularni amalda qo'llash bilan qo'shib olib borish.

Nutq faoliyati turlarini o'zaro hamkorligi.

Og'zaki ilgarilab ketish.

Opraktsimatsiya xossasi borilishi.

Chet tili o'qitishni boshlangich bosqichida intensiv (jadal) olib boradi

Guess my job.

Maqsadi: turli kasblarni va ularga tegishli so'zlarni mustahkamlash.

Kerakli vositalar: kasblar nomi yozilgan kartochkalar to'plami.

Har xil kasblar nomi yozilgan kartochkalar konvertga solinadi. Guruhdan ko'ngilli o'quvchi chaqiriladi va bitta kartochka tanlanadi. Galma-gal o'tirgan o'quvchilar kartochkadagi yashiringan kasb qaysi ekanligini topish uchun faqatgina umumiy (Yes/No questions) savollarni so'raydilar. Kartochkani ushlab turgan o'quvchi faqat "Yes" yoki "No" deb javob berishi mumkin. Kasb nomini birinchi bo'lib topgan o'quvchi o'rtada turgan o'quvchi o'rniga chiqadi va keying kartochkani oladi. O'yin shu tariqa davom etadi.

Actor	Lawyer	architect	Model
Fortune-teller	Doctor	sculptor	Pilot
Nurse	Driver	Cook	Gardener

Teacher	Plumber	carpenter	Secretary
Shop assistant	Vet	policeman	Astronomer
Barber	Designer	accountant	Singer

IIIBOB TEXNIK VOSITALARDAN TURLI TA'LIM BOSQICHLARIDA FOYDALANISHNI METODIK TASHKILLASHTIRISH

3.1 I-III SINFLARDA TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISH METODIKASI.

Istiqlolning dastlabki yillarida ta'lim tizimi O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotining ustuvor yunalishi deb e'lon qilindi. Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov tashabbusi va bevosita rahnamoligida jahonning bu boradagi ilg'or tajribalari hamda xalqimizning ko'p asrlik milliy qadriyatlarimizni o'zida aks ettirgan yangi ta'lim tizimi hayotga tadbiiq etildi.

Shu nuqtai nazardan O'zbekistonda ta'lim tizimini yanada rivojlantirish istiqbollari nazar tashlab, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish ta'lim sifatini yanada oshirishni muhim omili bo'lishini alohida takidlash lozim.

2013 yilning 1 martigacha bo'lgan muddatda har bir ta'lim bosqichida chet tillarni bilish darajasining aniq mezonlarini nazarda tutuvchi yangi ta'lim standartlari tasdiqlanishini ta'minlandi.

2013 yilning 1 mayigacha bo'lgan muddatda umumta'lim maktablarining birinchi sinfidan boshlab chet tillar ta'limini uzluksiz joriy etilishini, shuningdek ta'limning barcha bosqichlarida uning davomiyligini nazarda tutuvchi umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlarining yangi o'quv rejalari va dasturlari tasdiqlanishini ta'minlandi.

Respublikasi Xalq ta'lim Vazirligi huzuridagi Multimediiya umumtalim dasturlarini rivojlantirish markazi tomonidan bir qator elektron axborot ta'lim resurslari va dasturiy vositalar ishlab chiqildi.[4.154].

Tizimda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish maqsadida Vazirlikning Axborot-ta'lim portal (www.eduportal.uz) va rasmiy vebsayti (www.uzedu.uz) hamda Markazning rasmiy saytlari (www.multimediiya.uz) faolyat olib bormoqda. Ularga turli elektron axborot

ta'lim resurslari: elektron darsliklar, test va mashqlar, virtual laboratoriya ishlari, multimediyali dars ishlanmalari, masofaviy ta'lim olish uchun mo'ljallangan turli o'quv materyallar, interfaol o'yinlar va boshqa ta'lim resurslari joylashtirilgan. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologyalarni qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amalyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtrokchilariga aylantirish nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtrokchiga aylanishi lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keladi. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarning bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllandi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materyallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarni qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof

muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantradi. Brinchi sinfda chet tilini o'rganish uchun tuzilgan o'quvchi kitobi nutq faolyatining ikki turi, eshitish va gapirish orqali o'zaro muloqot qilishga asoslangan. Bunda yozuv o'quvidan foydalanilmaydi, bu O'zbekistonda ilk bor qullanilayotgan uslub bo'lgani sabab, mazkur fan o'qiyuvchilarida bazi tushunmovchiliklar tug'ulishi mumkin.

Metodik qo'llanma dasturida nazarda tutilgan va darslikda yoritilgan mavzularni bayon etish metodikasi ishlab chiqilgan. Metodik qo'llanma va multimediyali ilovalarda keltrilgan materyallar o'qituvchining darsga tayyorgarligi, uni tashkil qilish, o'quvchilarni bilimlarni tekshrishda yaqindan yordam beradi. [10.79.]

Qo'llanmaning multimediyali ilovasida har bir darsda yangi mavzuning bayoni animatsiyalar orqali taqdim etilgan. Masalan o'quvchilarga 'soat. Minut'' mavzusini tushuntrmoqchisz ushbu jarayonni tez va oson bo'lishi uchun ekran orqali dastlab soatning turlari; qum, quyosh va kundalik hayotda uchraydigan ko'rsatkichli va elektron soatlarning turlari animatsiya orqali ekranda namoyish etiladi. Bu vaqtda o'qituvchi o'quvchilarga ularning kelib chiqishi va ishlatilish usullarini tanishtradi. Soatlarga vaqtni bilish, uning strelkalari nimalarni anglatishini batafsil tushuntrib beradi. Elektron soatlarning tuzulishi va ularning ishlash mehanizimi o'qituvchilar o'quvchilarga ekranda o'tib boorish jarayonida tushuntrib boradi. Elektron soatlarning turlari o'quvchilardan so'raladi. Oquvchilar javoblari o'qituvchilar tomonidan to'ldrib boriladi. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun ''Soatni ko'rsat'' nomli trenajyor mashqi bajariladi. Bu mashqda chap va o'ng tomonlarda berilgan vaqtni ko'rsatkichi soatda ifodalash talab etiladi. Berilgan topshriq to'g'ri bajarilsa, ekranda soat strelkalari ko'rsatayotgan sonlar tartib bilan joylashadi.

Shularni e'tiborga olgan holda quyida sifat va samaradorlikka erishish uchun brinchi sinfda "Mening do'stim" yoki "Mening dugonam" mavzusida bir soatlik dars ishlanmasi tavsiya qilinadi.

Mavzu: My friend (mening do'stim)

Beshinchi sinf

Maqsad: O'quvchilarga do'stlari haqida hikoya qilishni o'rgatish va bundan oldingi mavzuni mustahkamlash.

Ta'limiy maqsadlar:

a) Grammatik : otlar va sifatlarni qo'llashni o'rgatish

b) Fonetik: tovushlarni talaffuzdagi farqini anglash.

c) Darsga doir so'zlarni qo'llay olish

Tarbiyaviy maqsadlar: O'quvchilarda do'stga sadoqat ruhini tarbiyalash.

Sinfdagi do'stona iliq muhitni rivojlantrish.

Amaliy maqsad: Sinfda jonli muloqot holatini shaklantrish

O'rganiladigan yangi so'zlar:

Didaktik materyallar: CD, o'quvchi kitobi, suratlar

Darsning borishi:

O'g'zaki nutqni o'strish vaziyatini yaratish.

Maqsad o'quvchilarni diqqatini mavzuga qaratish va ularni jonli og'zaki muloqotga o'rgatish.

Davom etish vaqti: 3daqqa

Darsning borishi: Brainstorming metodi orqali darsni boshlaymiz. Darsni nima uchun bu metod bilan boshlaganimizni va yana bugun nimalarni o'rganishimiz ehtimolini o'quvchilardan so'rash va ularni fikrlashga undash.

O'quvchilar: Ustoz, bizlar sog'lommiz, yangi darsga tayyormiz.

O'qituvchi: kim sinfda navbatchi, xar narsadan xabarchi?

Navbatchi o'quvchi:

Sinfda men navbatchi,

Atrofga bir qarangchi,

Parta, stollar toza ,

Eshik, oynalar soz-a?

Darsimiz inglis tili,

Urganamiz biz tilni.

Darsda hamma bor,

Ilg'orlikdr bizning shior.

(Navbatchi ahboroti tinglandi, davomat aniqlanib, o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshirildi o'tgan darsda berilgan uy vazifalari tekshirildi.)

O'qituvchi Brainstorming metodidan foydalandi va o'quvchilarni do'stlik haqidagi fikrlarini eshitdi.

Gulnoza: do'stlik bu – og'ir damida bir biriga yelkadosh bo'lish.

Doskaga klaster chizdi va ichiga haqiqiy do'st deb yozib atrofiga, o'quvchilarning chin do'stning fazilatlarini haqidagi fikrlarini yozib chiqdi.

Sarvar: ishonch

Zokir: tushunish

Zulayho: birbiriga yordam berish

O'quvchilar eng yaqin do'stlari haqida qisqacha gapirib berishdi.

Diyora: Mening do'stim Gulnoza, u juda mehribon, aqlli qiz. Sinfda u aktiv o'quvchilardan biri u har qanday holatda ham meni tushunadi va yordamini ayamaydi.

Uyga vazifa:” Mening do'stim” mavzusida insho yozib kelish.

3.2V-VI –VII SINFLARDA TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNI METODIKASI.

Prezidentimiz Islom Karimov “Kadrlar tayyorlashning sifati erkin fikrlovchi shaxs –fuqoroni kamol toptrish, ertaga sinfxonalarda va auditoriyalarda kimlar dars va saboq berishiga bog’liq”,- deb ta’kidlaydi. Demak bugungi kunda ta’lim samaradorligini oshirish yo’lida barcha mas’ulyat saboq beruvchilarning, yani o’qituvchilarning zimmasiga tushadi. Shunday ekan pedagoglardan o’qish va izlanishdan erinmaslik, o’ziga ham o’zgaga ham birdek talabchan bo’lish, til o’rgatishda ta’limning eng samarali usullaridan foydalanish talab qilinadi. Hozirda til o’qitishning eng samarali usullaridan multimediya vositalari nutqli axborotni kritish-chiqarish qurilmalari(klaviatura, mikrafon, kuchaytirgichlar, tovush kalonkalari) animatsion va video malumotlarni kritish va chiqarish qurilmalari(videokameralar, videoproektor va ekranlar, electron doska), tovushli va video ma’lumotlarni saqllovchi optik disklar, multimediya vositalaridan foydalanishda ularning bir necha turlari va usullari mavjud.

Hozirgi zamon talabi, darslarni o’yinlar, noan’anaviy usullar, hamda kompyuter texnalogyasidan foydalanib, multimediyalar orqali o’quvchilarni darslaga jalb qilish asosiy maqsad qilib ilgari surilmoqda. Ayniqsa umumta’lim maktab o’quvchilariga dars berish mobaynida kompyuter texnalogyasidan foydalanib dars o’tish yaxshi samara beradi. Ma'lumki o’rtanchi etapga V-VI - VII sinflar kiradi. Bu etap-ning muhim ob'ektiv faktorlari bo’lib, V-VI - VII sinflar chet tili o’qitishning maqsadi, vazifalari, til materialining xajmi hisoblanadi. Bular og’zaki nutqqa va o’quvchining iqtidorida o’quv protsessini tashkil etishni va o’z predmetini mustaqil izlash formalarini tanlashni muhim omillaridan biridir.[16.158.]

V-VI-VII sinf o’quvchilari nisbatan o’yinqaroq va beqarorligi bilan xarakterlanadi. Lekin sevimli multofilimni tomosha qilayotgan bolani kuzatib turib, ularning diqqati yetarlicha barqarorligiga amin bo’lamiz, agar obekt bola uchun yetarlicha qiziqarli bo’lsa, chet til materyalining yorqinligi, jozibaliligi o’quvchida beixtiyor tuyg’uar uyg’otadi. Shu sababli o’rta sinf o’quvchilarida yorqin rangli

rasmlardan va videoroliklardan proektor yordamida foydalanish ancha samarali. Yuqori sinf o'quvchilarini o'qitishda ham multimediyadan keng foydalaniladi. Bu tadbir bolalar faolligini oshiradi, hamda o'tilgan yangi mavzuni eslab qolish oson kechadi. Bunday vositalar darslarda o'quvchilarning faol ishtirok etishlariga yordam beradi, ularning diqqat-e'tiborlarini oshiradi, xotirasini kuchaytradi va eng muhimi, o'qituvchining ham, o'quvchilarning ham vaqtini tejaydi.

Darhaqiqat, o'quvchilarni zamonaviy texnik vositalardan, qolaversa, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida o'qitish hozirgi kunning dolzarb, kun tartibiga qo'yilgan asosiy masalasiga aylandi. Axborotni kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish:

- O'quvchini darsga, fanga bo'lgan qiziqishini, ixlosini yanada rivojlantradi;
- O'rganilgan o'quv mavzu, kursi bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- Muammolarni tahlil qilish va qarorlarni yakka tartibda va guruhli qabul qilish ko'nikmalarini egallaydi;
- Ijodiy va o'rganish qobiliyatlari, mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantradi;
- Mas'ullik, mustaqillik, kommunikativlik va empatiya, refleksning shakllanishi, o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirish sifatini, o'z-o'zini tekshirishni, tekshirishni o'rganadi;
- Mustaqil holda erkin fikrlash malakasini shakllantradi;
- Ijodkorlik va tashabbuskorlik muhitini vujudga keltradi;
- Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi;
- O'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi;
- Qisqa vaqt ichida ko'p malumotga ega bo'ladi;
- O'quvchini faollashtradi;
- Fikrlar rang-barangligi, qarashlar xilma-xilligi yuzaga keladi;
- O'z fikri va o'z g'alar fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi;
- Olgan bilimlarni hayotga tatbiq etishga imkoniyat yaratadi;

Voqean, bu usullar, ayniqsa, ta'lim tizimining barcha sohasida, xususan umumta'lim maktablarining V-,VI-va VIIsinfda ta'lim olayotgan o'quvchilarga ingliz, nemis, fransuz, va o'zbek tili kabi fanlarni o'qitishda qo'l keladi. Kompyuter darslarining asosini unda berilgan materyallar (turli matnlar, topshriqlar, test savollari, multimediya vositalari) tashkil etadi.

Multimediya vositalari yordamida axborotlarni matnli, animatsiya ko'rishida namoyish etishi mumkin. Ma'lumki multimediya axborot resurslari animatsiyali, audio va video ma'lumotlardan tarkib topadi. [14.78]Dars jarayonida o'quvchilarning kompyuterda ishlash yo kuzatish malakalari emas, eng asosiysi ularning tashabbuskorlik va ijodkorlik muhiti rivojlanadi, eslab qolish qobiliyati kuchayib, yozma va og'zaki nutqni rivojlantrish masalalariga katta e'tibor qaratiladi. Boy merosimiz ajdodlarimizning aql zakovati bilan yo'g'rilgan "donishmantlar bisoti"dan olingan chuqur mazmunli qisqa hikoyalar, madaniy tarixiy yodgorliklarimizga oid ma'lumotlar uzoq tariximiz, tilimiz, adabyotimizning buyuk allomalariga oid ma'lumotlar to'plashda va uni aynan mana shu V-,VI-,VIIsinflarga tushuntrishda axborot kommunikatsiya texnalogyalaridan foydalanish katta samara beradi. Bu kabi texnalogyalar orqali o'quvchi animatsion ko'rinishlar orqali madaniy yodgorliklarning, obidalarning arxitekturasi, milliy ma'navyatimiz, madanyatimiz, tilimizva millatimiz to'g'risida tasvvur hosil qilishlari hamda ularning ingliz tilidagi tarjimasini bilishlari va og'zaki nutqda qo'llashlari mumkin, O'qitishning zamonaviy metodlari va AKTdan foydalana bilmaslik, dars o'tishning ananaviy usullari orqali o'qitishdarsning darsning zerikarli va samarasiz o'tishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning natijasida o'quvchialrning fikrlash doirasi va dunyoqarashi susayishi mumkin. V-, VII- VIIsinflarda ingliz tilini AKTdan foydalanib o'rgatishning asosiy maqsadlari ularning keying mehnat faolyatida to'g'ri yozish, o'z fikrini erkin bayon etish, munshaot qoidalarini bilish kabi ko'nikmalarni shakllantrishdir. Ushbu ko'nikmalar ichida eng muhimi fikrni matn tarzida

bayon etishdir. Oddiy bir misol; mashg'ulotning avvalida o'quvchilarga biror mavzuda hikoya beriladi. Keyin o'quvchilarning etibori monitor(ekran)dagi axborotlarni; matnli, tasvirli, tovushli va animatsion ko'rinishdagi namoyishga qaratiladi. O'quvchilar uning mazmuni, talab darajasi bilan tanishganlaridan so'ng (tovushli) matn ustida ishlashning quyidagi bosqichlariga o'tishi mumkin:

- matndagi asosiy fikrni aniqlash;
- matnni qismlarga ajratish;
- matn yuzasidan savollar tuzish;
- matnga sarlavha tuzish;
- matn mazmunini qayta hikoya qilish;
- lug'at bilan ishlash;
- matnni ona tiliga tarjima qilish'

Shu tariqa matn bilan ishlash davomida talabalarning ham og'zaki, ham yozma, nutq malakalari shakllana boradi, esda qolish qobiliyati kuchayadi, eng muhimi fanga bo'lgan qiziqishi ortadi.[23]

Tahlil qilganimizdek, o'quv mashg'ulotlarida ana shunday samarali natijaga erishish o'quv jarayonida innavatsion va axborot texnologiyalarini qo'llashni taqazo etadi. Shunday ekan, o'qituvchi yangi pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirishi va uni darsga tatbiq etishi, takomillashtrib borishi, o'z ustida ishlashi, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lashi orqali- kelgusida talabalar mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantrishga, qobiliyatlarni rivojlantrishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassis kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbyalashga erishadi. Bu mas'ulyatli vazifa natijasida o'quvchida quyidagi ko'nikmalar shakllanadi:

- o'quvchi o'zida ortiqcha hayajonni yo'q qila olishga o'rganib boradi;
- so'zga chiqishdan oldin juratsizlikni yenga olish qobiliyati o'sadi;
- qattiq hayajon, ruhiy zarba(stress) vaqtida o'zini boshqara olishni o'rganadi;

Quyida ingliz tili o'qitishda multimediya texnologyalari va innavatsion metodlardan foydalangan holda o'tiladigan bir soatlik dars ishlanmasini beshinchi sinflar uchun namuna sifatida ko'rib chiqamiz.

III-III Axborot texnologyalari, kompyuter va kompyuter dasturlari insonlar bajaradigan ishlarni yengillashtrish, samarali faolyat yurutish va bilimlarga ega bo'lish uchun yaratiladi, yangi imkoniyatlar ochadi va bizdan yangi bilim ko'nikmalarni ega bo'lishimizni talab etadi. Ta'limda axborot kommunikatsiya texnologyalari vositalaridan keng foydalanish davrimizning dolzarb vazifalari qatoriga kiritilgan. Shu vazifalarni amalga oshirishda axborot kommunikatsiya texnologyalari oid bilim va malakalar doirasini kengaytrish bilan birga, axborot-resurslarini ham son jihatidan ko'paytrish, ham sifatini ko'paytrish, ham sifatini ko'tarish, yani mazmunan boyitish muhim o'rin tutadi. Shu o'rinda Kreyg Barretning so'zlarini keltrish o'rinli bo'ladi: „Mo'jizani kompyuterlar emas, balki o'qituvchilar yaratadi“. Yani axborot texnologiya vositalari ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi, bu jarayonda ular faqatgina bilimlarni yig'ish hamda tekshirish vositasi sifatida qatnashishi nazarda tutiladi. [9.134.]

O'rtanchi bosqichning o'ziga xos psixologik hususiyatlaridan biri o'quvchilarni yosh xususiyatlaridir. Bu yoshdagi o'quvchilar uchun o'zini kattalardek tutishga intilish kuchli. Bular endi yosh bolalar emas, buni o'zlari ham yaxshi xis etishadi. Ular kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida o'zlariga nisbatan kattalardek munosabatda bo'lishlarini hohlaydilar. Bu yoshdagi bolalar ko'pincha o'zlarining kuchlariga ortiqcha baho berib yuborishadi. O'zlarining faoliyatlarida, xatti-harakatlarida kattalardek tutish, ba'zi masalalarni yechishda mustaqil bo'lishga intilish kuchli. Ayni huddi shu yoshdagi bolalar o'zining kasbga bo'lgan qiziqish va maktabda o'rganiladigan o'quv predmetlariga nisbatan differentsial munosabatda bo'lish shakllana boradi. Ular o'quv predmetlarini “kerakli va keraksizlarga ajrata boshlaydi. Asosan keraksiz fanlar qatoriga gumanitar fanlarni qo'shishadi. Ming afsuski, shu fanlar qatoriga ular chet tili fanini ham kiritishadi.

Nima uchun?

Bu yoshdagi bolalar bir tomondan ibratli, o'zlarini istaklarini o'ylaganlarini tezroq amalga oshirishga intilishar, ikkinchi tomondan, ularni o'z bilimlarini oshirishga bo'lgan qiziqishlari susayadi. Psixologlarning aytishicha VI-VII sinf tafakkurining mantiqiy ketma-ketligi, tanqidiy ko'z bilan qarash, mustaqillik kabi formalari rivojlanadi. O'rtanchi etapni o'ziga xosligi chet til o'qitishning maqsadi, til o'rganishning hususiyatlari o'z til materialining harakteri (xajmi, murakkabligi) bilan belgilanadi. Til materialini asosan og'zaki nutqda o'rganiladi. Ya'ni aktiv minimum hosil qilish yo'li bilan.

Passiv minimum haqida tushuncha.

Bu etapda IV sinflarda hosil qilingan ko'nikma va ma-lakalar rivojlantiriladi. yangidan individual nutq tajribasi bilan boyitiladi. O'qitishning bu bosqichida o'quvchilar nutqi mazmunli, informatsiyaga boy, grammatik va leksik nuqtai nazaridan to'g'ri hamda muloqotni amalga oshirish uchun (oshirishga undovchi) motivga ega bo'lishi kerak. Bu bosqichda o'qitishning roli va joyi o'zgaradi. O'qish amaliy maqsadning biri bo'lishi bilan birga kommunikatsiyaning mustaqil ko'rinishi, yozuv matnlaridan informatsiya olish vositasi sifatida ham muhim rol o'ynaydi. VI -VII sinfda biz yuqorida ko'rib o'tgan ba'zi bir psixologik hususiyatlar o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini hosil qilishga imkon beradi. Mustaqil ish shakllaridan eng muhimi bu uyda, individual yoki qo'shimcha o'qishdir. Bundan tashqari lingofon xonasida ishlash, yoki programmalashtirilgan darslik bilan ishlash, o'qituvchining ba'zi bir topshiriqlarini bajarish (masalan: doklod tayyorlash, xabar tayyorlash) va x. k, shakllarida ham bo'lishi mumkin. O'rtanchi etapda o'qitishning turli usul va priyomlarini qo'llashda ham o'zgarish bo'ladi.

Masalan: boshlang'ich etap turli xil harakatchan o'yinlar, topishmoqlar, nutqda aytilganini harakat bilan bajarishni o'z ichiga oladi. O'rta etapda asosiy e'tibor ko'proq xajmdagi matnlarni o'qib tushinishda fikrlashni, nutq faoliyatini, tashabbuskorlikni oshirishga yordam beradigan metod-usul va priyomlarni qo'llash kerak. Bu bosqichda mashqlarni avval ularni maqsadini tushitirmasdan bajarish,

xor bilan taqlid qilish emas balki mashqdan ko'zlangan maqsadni tushintirib so'ng uni bajarish lozim. O'rtanchi etapdagi o'quvchilarning o'ziga xos hususiyatlaridan yana biri ularni og'zaki nutqqa bo'lgan qiziqishlarini pasayishidir. Ularni og'zaki kommunikasiyani amalga oshirish uchun doiyim qiziqtirib turish kerak. Ularni chet tilida gaplashishga nisbatan tashabbus ko'rsatmasliklarining sabablaridan biri ularni bu sinflarda chet tilida amalga oshiriladigan og'zaki nutqni primitivligidadir. Dars soatlarida o'zgarish yo'q. Lekin til materialining xajmi va harakteridagi o'zgarishlar va farqlar mavjud.

O'qitishning og'zaki nutq asosida ko'rishi yoki tashkil qilishi. Bu etapni o'ziga xos hususiyatlaridan yana biri shundaki chet tili o'qitish yakunlovchi bo'lib hisoblanadi. Masalan: 8 yil maktablarda.

O'qish (Reading) ko'proq kommunikativ harakter kasb etadi. Bu bosqichda tekst informatsiya man'baigina bo'lib qo'lmasdan, balki gapirishga undovchi kommunikativ stimul xoldir.

Darsni kompleks tashkil qilish.

Leksik va grammatik material nutq namunalari yordamida og'zaki nutq birlamchiligi asosida amalga oshiriladi. Lekin nutq namunalari bu bosqichda o'zlarining murakkabligi bilan ajralib turadi. U nafaqat oddiy gap namunalarinigina ishga olmasdan, balki qo'shma gap namunalarini, dialoglarni ham o'z ichiga oladi.

Materialni chuqurroq o'rganish, ularni tushunarli bo'lishi uchun ba'zi til birliklari ayrim ajraliq holda ham o'rganishga yo'l qo'yiladi. Bu bosqichda til materialini og'zaki nutq o'rganishda tematik asosda guruhlarga ajratish, o'qishda (Reading) esa bog'liq matnlar asosida o'quv protsessini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Nutq faoliyatining ko'rinishlarini bir-biriga ijobiy ta'sir etishidan unumli foydalanish kerak. Ma'lumki V-VI sinfda tovush-xarf munosabati shakllantiriladi. O'quvchilarda ma'lum bir darajada eshitish, tushinish, audirovaniya, yozuv, ovoz chiqarib va ovoz chiqarmay o'qish ko'nikmalari tarkib topgan bo'ladi. Shuning

uchun ham bu bosqichda nutq faoliyatining turlaridan unumli foydalanishga harakat qilmoq kerak.

Masalan: og'zaki nutqni o'qishga ta'siri (tarjimasiz), o'qishni gapirishga ta'siri, yozuvni gapirishga ta'siri va x. k.

Shunday o'qish (Reading) yozuv va og'zaki nutqni o'stirish tayanchi bo'lib hizmat qiladi. Til materialini o'rganishda onglilikning oshib borishi kuzatiladi. Masalan, IV-V sinf o'quvchilarida taqlid qilishga istakning kuchliligi kuzatilsa, VI-VII sinf o'quvchilarida esa o'qib o'rganishga nisbatan ongli munosabat shakllanadi. Shuning uchun ham darsni tashkil qilishga bo'lgan metodik talablar qat'iy bo'lishi kerak. Buning uchun esa u qiziqarli, bolalar imkoniyatiga (til o'rganish imkoniyatiga) mos bo'lmog'i zarur. Til materialini o'rganishni tashkil qilish ongli, mustaqillik asosiga qurilmog'i kerak, bu esa o'quvchlarning yosh hususiyatlariga mos keladi.

Mustaqil ishlash shakllari.

1. Individual ya'ni kuchli va kuchsiz o'quvchilarni hisobga olish;
2. Frontal individual vazifa berish (turli xil tekstlarni ichida o'qiy oladigan (silent reading) bilan ishlash; turli kartochnalardan foydalanish);[16.158.]

3.3 VIII-IX SINFLARDA TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISH METODIKASI.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq markazda umumta‘lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun chet tillarni o‘rganish bo‘yicha turli qo‘llanmalar ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunda umumta‘lim maktablari ikkinchi sinf o‘quvchilari uchun elektron ingliz tili alifbosi ishlab chiqildi. Shu sababli ham bugungi kunda xorijiy tillarni o‘rganishga e‘tibor katta. [6.23.]

Shu xususda, bizga berilgan diplom ishi yuzasidan 2016-yilning 27 mart kuni Chortoq tuman xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo‘limiga qarashli umumta'lim maktablarning xorijiy tili o‘quvchilari bilan «Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish metodikasi va ularda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilishda interfaol metodlarni qo‘llash” mavzusida bo'lib o'tgan o‘quv-seminarini kuzatdim. Unda O‘zbekiston Respublikasi „Progress” o‘quv markazi ingliz tili o‘qituvchisi Gulsanam Qurbanova, Namangan shahar 41-sonli maktab ingliz tili o‘qituvchisi Zayfuna Bagdiyeva va Namangan tumani 22 maktab ingliz tili o‘qituvchisi Maryam Ismoilova hamda tuman XTMFMTTEB metodisti Yulduz Ruzmetova va tuman umumta'lim maktablari xorijiy tili o‘qituvchilari qatnashdilar.

Umumta‘lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv muassasalarida chet tillar o‘qituvchilariga zarur ehtiyoji bo‘lgan uzoq tumanlar va qishloq aholi punktlarida yashayotgan aholi ichidan mahalliy davlat hokimiyati organlarining tavsiyanomalari asosida chet tillar o‘qituvchilari ixtisosligiga oliy ta‘lim muassasalariga maqsadli qabulni amalga oshirishga ruxsat etildi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tarkibida Chet tillarni bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi tashkil qilinsin, Markaz xodimlarining

soni 12 kishiga ko'paytirilsin va uning vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilansin:

Xalqaro e'tirof etilgan standartlarning talablariga muvofiq chet tillarni bilish darajasini baholashning Milliy test tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

o'rganuvchilarni chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlashni to'lov asosida test o'tkazish (jumladan, Internet orqali masofaviy) va davlat namunasidagi tegishli malaka sertifikatini berishni tashkil etish;

o'rganuvchilarning mustaqil ravishda, chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlash uchun, testga tayyorlanishlariga zarur ma'lumotlarni tayyorlash va Internet tarmog'iga joylashtirish.

Markazning byudjetdan tashqari daromadlari hisobidan unga yuklangan vazifalarni bajarish uchun Markazga to'lov asosida mustaqil ekspertlarni va imtihon oluvchilarni jalb etish huquqi berildi.

Hozirgi kunda mamlakatda qaysi xorijiy tillar o'rganilishi ko'p omillarga bog'liqdir. Mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy salohiyati va uning xalqaro miqyosdagi munosabatlari hamda hududiy va global tarmoqqa aloqadorlik darajasi xorijiy tillarni o'qitish masalalariga hamda ularning o'rganish ketma-ketlik tartibiga ham ta'sir etadi. Xorijiy tillarni o'rganish jarayonida birinchi chet tili sifatida ko'pincha "foydalilik mezon" bo'yicha eng muhim bo'lgan til ustuvor hisoblanadi — bugungi kunda ingliz tili Lingua franca sifatida bunga misoldir.

Yevropadagi kabi „yevropacha ko'p tillilik“, tushunchasi ostida kamida ikkita zamonaviy xorijiy tilni egallash maqsad qilinsa, unda navbatdagi chet tillarni o'rganish uchun birinchi chet tilining ahamiyatiga yanada ko'proq e'tibor berilishi lozim. Bu ayniqsa, bolalar bog'chalari, tayyorlov maktablari yoki boshlang'ich maktablarda birinchi chet tilini o'qitish uchun muhim sanaladi, chunki birinchi chet tili navbatdagi xorijiy tillarni o'rganishga yo'l ochib berishi lozim.[20.67.]

Ota-onalar ko'p hollarda ingliz tilini o'rganish oson, u global aloqa vositasi sifatida farzandlarining kelajakda o'qish va kasb sohalarida martabaga erishish uchun yaxshi zamin yaratadi deb ishonganlari uchun uni birinchi chet tili sifatida o'qitilishini talab qiladilar. Biroq, ular ingliz tilidan tashqari butunlay boshqa tillar keng foydalaniladigan hududlarda jamiyatning o'zgaruvchanligi va tezkorligi hududiy ehtiyojlardan kelib chiqishi, ingliz tili birinchi chet tili sifatida boshqa chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi to'g'risida mulohaza qilib ko'rmaydilar.

Ammo aksincha, chet tillarini o'rganishni boshlashda boshqa bir chet tili bolalarga mos va uzluksiz tarzda o'rgatilsa, mazkur chet tiliga va tili o'rganilayotgan mamlakatning madaniyatiga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Bunday holatda ingliz tili ma'lum bir vaqt o'tib, chamasi uch yoki to'rt yillardan keyin, tez suratlarda o'rganilishi mumkin. Shunda ingliz tili bo'yicha bilim darajasi bosqichiga erishishga hech qanday putur yetmaydi.

Til siyosati nuqtai nazaridan qaraganda hududiy ko'p tillilik konsepsiyasi tillarni tanlash va ularni o'rganish ketma-ketligi to'g'risida turlicha mulohaza yuritishga imkon beradi. Bolaning individual muloqot yuritish va bilim olishga bo'lgan ehtiyojlari, jumladan uning kelajakdagi shaxsiy va kasbiy intilishlari diqqat markazida turadi. Bundan kelib chiqadiki, bolalarda hududiy jihatdan muhim bo'lgan ko'p tillilik profillarini rivojlantirish uchun chet tili darslarini va tillar ketma-ketligini ko'p qirrali va o'zgaruvchan qilib tashkil etish zaruriyati tug'iladi. VIII-IX-sinflarda ham multimediya texnologiyalar bilan didaktik o'yinlarni uyg'unlashtrilgan holda qo'llash mumkin. Ma'lumki o'quvchilarning mustaqil, keng va puxta bilim olishlarida syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiya, o'yin mashqlari kabi didaktik o'yinlar o'zining ta'lim-tarbiya beruvchi, bilimlarni mustaxkamlovchi, o'quv materyallarini takrorlovchi, bilimlarni nazorat qiluvchi o'yinlar sifatida ifoda etilishi, bilan ahamyatlidir. O'quvchilarning ijodiy fikrlash, mustaqil bilim ko'nikma, malakalariniyangi vaziyatda qo'llash orqali yangi

bilimlarni o'zlashtirishida didaktik o'yinlarning o'rni alohida ajralib turadi. Didaktik o'yinlardan foydalanganda ularning bir-biridan farqlanishi va o'ziga xos tavsiyaga ega ekanligiga e'tibor beriladi.[13.77.]

Shuni alohida takidlash joizki, o'quvchilarning mustaqil ishlari; mashg'ulot jarayonida mustaqil ish, turli ijtimoiy foydali faolyatlar, topshiriq va mashqlarni bajarish, fan bo'yicha o'tilgan materyallarni takrorlash, test-sinov topshiriqlarni bajarish, savol-javob baxs, munozara yurutish, sayr-sayohatlar yurutish, shaxsiy ta'surotlarni himoya qilish, mustaqil o'qishning sahna va kino ko'rinishini tashkil etish, kitob bilan mustaqil ishlash, soha bo'yicha amaliy ishlarni bajarish, referat, ma'ruzalar tayyorlash, dastur yunalishida badiiy adabyotlarni tahlil etish, topshiriq, slaydlar orqali namoyish etish asosida mustaqil ishlarning ahamiyati kattadir. Bu ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish har qanday soha faolyatida ijobiy o'zgarishlarni sodir etadi. Eng muhimi o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda texnologik yondashuv o'quv jarayonini yanada faollashtiradi, o'quv materyallarining o'zlashtirilishi yuqori darajada erishiladi. Chet tili o'qitishning o'rtanchi bosqichida biz yoqorida ko'rib o'tilgan psixologik, fiziologik xissiyotlarni o'ziga xosligini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil qilishimiz kerak. O'quvchilarga doimo o'rganilayotgan til materiali avval to'la tushinilgandek bo'ladi, lekin bu xato ularni albatta ma'lum vaqtdan so'ng takrorlanmasligi xotirada saqlab qolinmaydi va aktiv sostavi bo'lmaydi. Material takrorlanib tursagina u o'zlashtiradigan deyiladi. (10-20% eslash ortadi). Izoh: aktiv o'zlashtirish: passiv o'zlashtirish: o'rta bosqichdagi o'quvchilar uchun ichki motivdan tashqi motiv kuchliroq shuning uchun bu har ikkala motivdan oqilona foydalanish zarur. Bajarilayotgan mashqlar o'quvchilar oldiga qo'yilgan vazifalar muammoli harakatga ega bo'lishi kerak, ular intellektual emotsiyani keltirib chiqarishga undovchi stimuly bo'lishi kerak. Dars kommunikativlik prinsipi asosida olib borilmog'i zarur unda har bir nutq faoliyatini motiv-real vaziyatdan kelib chiqishi muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar chet tili nutqidagi o'z muvaffaqiyatlarini his qilsinlar. VII-VIII sinf o'quvchilari o'zlarini chet tili nutqi juda ham sodda

bo'lganligi uchun kulgiga qolmaylik deb, chet tilida gapirishga harakat qilmaydilar ham. Chet tili o'qitishning bu o'rtancha bosqichdagi muvaffaqiyatsizligi o'quv protsesining psixologik jihatdan soxta situatsiyaga moslashganligidandir. Ma'lumki ularning ona-tilidagi nutqi informatsiyaga boyligi bilan ajralib turadi. Ularning chet-tili nutqi esa primitiv, bo'lib o'quvchilarning istak xoxishlarini ifodalashga hozir emas. Shuning uchun darsda real voqealikdan kelib chiqadigan situatsiyalardan foydalanish, darsda turli xil o'yinlarni o'tkazish kerak. Lekin bunda IV-V sinfga hos bo'lgan o'yinlardan foydalanish mumkin emas, chunki VII-VIII sinf o'quvchisi o'zga sinfdoshlari oldida kulgi bo'lib qolishdan qo'rqishadi. Bunday vaqtda eng muhimi turli "Ролевин Игри" ro'llarda ijobiy yondashgan holda bajariladigan o'yin turlaridan foydalanish kerak. Bu yoshdagi bolalarni sinfdan tashqari ishlarga keng jalb qilmoq kerak. Afsuski ko'p hollarda bu maktablarda bajarilmaydi. Undan tashqari o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida chet tilidagi muloqot ham katta ro'l o'ynaydi.

V-VII-VIII sinf o'quvchilarining yoshi o'smirlikning ilk davriga kelib bir qator psixologik hususiyatlar bilan harakterlanadi. Ulardagi yosh hususiyatlarining o'ziga xosligi VIII sinfdan boshlab tarkib topa boshlaydi. Psixologiya kursidan ma'lumki har bir yosh bosqichda oldingi bosqichdan yosh hususiyatlaridan ayrimlari saqlanib qoladi.

VIII-IX-sinf o'quvchilarini o'qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda quyida 1soatlik dars ishlanmasini taqdim etaman.

Mavzu: Love of Motherland

Maqsad: leksik, Grammatik ko'nikmalarini shakllantrish, taqdim etilgan matn asosida monologik nutq ko'nikmalarini shakllantrish.

Ta'limiy maqsadlar:

p) Grammatik: otlar va sifatlarni qo'llashga o'rgatish.

q) Fonetik: Tovushlarni talaffuzdagi farqini anglash.

r) leksik: Darsga doir yangi so'zlarni qo'llay olish.

Tarbyaviy maqsadlar o'quvchilarda odob-ahloq, o'zini tuta bilish, sadoqat ruhini tarbyalash

Amaliy maqsad: sinfda jonli muloqot holatini shakllantrish.

Didaktik materyallar: CD, o'quvchi kitobi, suratlar

Darsning borishi: Og'zaki nutqni o'strish vazyatini yaratish.

Maqsad: o'quvchilarning diqqatini mavzuga qaratish va ularni jonli og'zaki muloqotga o'rgatish.

Davom etish vaqti: 3daqiqqa

Darsning borishi: aqliy hujum metodi orqali darsni boshlaymiz. Darsni nima uchun bunday boshlaganimizni va yana bugun nimalarni o'rganishimiz O'smirlilik - bu shaxsni tarkib topish va kamolatga etishidir. Bu yoshda o'smirlarda tashqi muhitga munosabat va o'z faoliyatiga baho berish hususiyatlari rivojlanadi. Lekin shu bilan birga o'smirlarga xos narsa bu kuchiga ortiqcha baho berish va o'zligini ko'rsatishdir. Bu esa tez-tez turli xil qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. O'quvchilarning xotirasida, o'quv predmetlariga, chet tili predmetiga bo'lgan munosabatlarida ham sezilarli o'zgarish yuz beradi. Masalan: VII-VIII sinf boshlarida chet tili o'rganishga bo'lgan qiziqish so'nadi. Lekin IX sinfga kelib o'quvchilar chet tili o'rganishga alohida bir qiziqish va javobgarlik bilan qaraydilar. Bu bosqichda o'quvchilar psixologiyasining o'zgarishi tufayli avvalgi bosqichlarda yaxshi natija bermasligi mumkin. Yuqori sinf o'quvchilari bajarish maqsadi aniq bo'lmagan mashqlarni qiziqishsiz., befarqlik bilan bajaradilar. Ammo ular ma'no jihatdan bog'liq tekstlarni alohida bir qiziqish bilan o'qishadi. Bu bosqichda mustaqil ishlash alohida rol o'ynaydi,ayniqsa chet tili bilan. Yuqori sinflarda darsga qo'yilgan talablar oldingi etaplardagidan farq qiladi. Endi dars og'zaki nutq asosida ko'rilmaydi, chunki bu bosqichda til materialining ko'pchilik qismi passiv ravishda (retseptiv holda) o'rganiladi. Ya'ni o'qib tushinish asosiy rol kasb etadi. Tekstlar ham xajmi jihatidan, katta til materialini esa murakkabdir. Darsni kompleks asosda tashkil qilish til materialining ayrim tomonini (leksik va grammatik) ayrim holda o'rganish bilan almashib turishi kerak. Bu bosqichda chet

tili o'qitishning qiyinchilik tomonlaridan biri dars soatlarining kamayib ketishidir. Og'zaki nutq ko'nikmalari faqat darsda erishiladi, shuning uchun yuqori sinflarda dars soatining cheklanganligi tufayli biz avval dialogik va monologik nutq sohasida erishilgan ko'nikma va malakalarni saqlashimiz va takomillashtirishimizga to'g'ri keladi. O'quvchilar sinfda mamlakatimiz va Angliya xayotidagi o'zlarini qiziqtiradigan voqealar yuzasidan suhbat olib borishlari kerak. Nutqni tinglab tushinish malakalarini o'stirishga e'tibor bermoq kerak. Bu bosqichda tez o'qishga o'rganishdan tashqari o'quvchilar chet tili, ona tili lug'atidan foydalanishni o'rganishlari kerak. Kontekstdan tushinishga o'rgatish ko'nikmalari ham shu bosqichdan boshlanadi, demak, tekstlarda ba'zi notanish so'zlar bo'lishiga yo'l qo'yiladi. O'qish bo'yicha amaliyot engil lug'atga murojaat qilmaydigan tekstlar asosida amalga oshiriladi.

Grammatik material.

The Past Continuous, The Past Perfect; Future in the past Ind; Bu bosqichda o'quvchini shaxsini rivojlantirish va uning dunyo qarashini tarkib toptirish imkoniyatlari kengayadi. Mantiqiy xotirani (mushoxadaviy) rivojlantiruvchi topshiriqlar bo'lmog'i kerak, chunki bu bosqichda o'quvchilarda xotirada saqlab qolish zarur bo'lgan ko'p materiallar to'planib qoladi. Bir-biriga bog'liq, mazmunli tekstlarni o'qish, chet tilidan axborot olish, imkoniyatini kengaytiradi. Bu bosqich chet tili o'qitish metod va usullarini ma'lum darajada o'zgartirishni talab qiladi. Dialogik nutqni baxs, muhokama tarzida o'tkazish foydalidir. Bunda stimul beruvchi nutqiy situatsiyalarning roli katta. Masalan: O'rtog'ingiz bilan kinoga borish haqida kelishib oling. Bunda dialogda 2 emas, balki bir necha kishini ishtirok etishi katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, dialoglarni instsenirovka qilish o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi mumkin. Bunda xayrat, quvonch, ajablanishni ifodalashga o'rgatish zarur. Bu o'z navbatida tabiiy nutqqa undovchi o'yindir. Ammo shunga e'tibor berish kerakki instserovka qilinayotgan dialogning ayrim elementlari avval oldindan ishlangan bo'lishi kerak. Buning uchun tayyorlov

mashqlari zarur. Masalan: replikaga turli javoblar berish; rad qilish; qarshi savol berish;

Monologik nutqni o'stirishga bog'liq fikr bildirish ko'nikmalarini o'stirish zarur. Bunda quyidagi topshiriqlar foydalidir:

1. Say where you went on Sunday, and whom you went with.
2. Say about the boy you met in the street where he was from.
3. Say how you went to Tashkent and what you saw there.

O'quvchilarni mulohaza qilish faktlarini aytishga o'rgatish zarur. Topshiriqlar o'zbekcha bo'lishi ham mumkin:

1. Siz nimaga qiziqishingizni aytib bering.
2. Siz nima uchun chet tilini yoqtirasiz (yoki yoqtirmaysiz) aytib bering va x. k. Tekstlarni o'qitishda o'quvchilarga ayrim faktlarni isbotlov-chi topshiriqlar berish foydali. Masalan:

Give as many facts from the text as you can to prove the following.
He was a bad boy.

He was a true friend . va x. k.

Eshitib-tushinish (audirovaniya) ko'nikmasini o'stirishda tekstni elektron lingafon vositasi yordamida bir necha bor eshitish tavsiya qilinadi. Bunda tekst avval sekin, keyin esa tezroq o'qiladi. Har o'qilgandan keyin o'quvchilarning qanday yangi faktlarini tushinganliklari bilib olinadi. Ularni buning uchun baholash ham tekstni eshitib tushinish ko'nikmalarini o'stirishda eng muhimi o'quvchilarni har qanday qiyinchilikdagi tekstni birinchi bor eshitgandayoq uning butun mazmunini umumiy tarzda fahmlab olishga o'rgatish kerak.

(Reading: orientirlarga tayanib o'qishga o'rgatish)

Lug'atdan foydalanishga o'rgatish;

(turli xil lug'atlar bilan tanishtirish).

40-60 ming so'zli lug'atlar maktab sharoiti uchun eng qulay lug'at. Shuningdek o'quvchilarni lug'atsiz kontekst yordamida tushinishga ham o'rgatish zarur. Bu badiiy adabiyotlarni o'qishda kerak. Internatsional so'zlarni tanib olishda

o'quvchilar diqqatini chet tili so'zi bilan ona tili s'o'zlari o'rnida ma'lum muvofiqlik borligiga tortmoq kerak.

Masalan: ism-izm.

Yuqori sinflarda (VIII-IX) adaptatsiya qilingan kitoblardan tashqari ilmiy ommabop va badiiy ommabop va badiiy adabiyotlardan olingan ayrim tekstlarni ham o'qishga o'rgatiladi. IX sinf gazetadan qisqaroq maqolalarni, informatsiyalarni o'qishga o'rgatish zarur. Og'zaki nutq IX sinf o'quvchilarga o'zlari qiziqqan mavzular yuzasidan suhbat olib borish kabi topshiriqlar berish foydali. Tekstni o'z so'zlari bilan ya'ni oddiygina so'zlab berish o'quvchilarda avval qiziqish uyg'otmasligi mumkin. Lekin tekst yangi axborot manbai sifatida uning mazmunini o'rganishda bu shart hisoblanadi. Og'zaki nutq mazmuni murakkablashadi, o'qilgan tekst yuzasidan olib borilgan suhbatdan o'quvchilarni qiziqtiruvchi va xayajonlantiruvchi masalani muhokama qilishga o'tadi. Avvalgi o'rganilgan so'zlarni so'z birikmalari sifatida boshqa ma'noda taniydilar.

Masalan:

hand - the hand of delegation

to see - I don't see why

to fall - to fall ill va x. k

.Qiyinchilik - dars soati kam. Nutqqa tayyorlov mashqlarini salmog'i ortadi.

Masalan:

Fikrni davom ettiring (gap qo'shing);

Aytilganni aniqlang;

Bayon qilingan fikrni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang;

Bu bosqichda til materialini so'zlar, so'z birikmalari va ranglarni safarbar qiluvchi mashqlar foydali tayyorlov mashqlari bo'ladi. Nutqiy mashqlar yuqori sinflarda bir tomondan, tekstlar ikkinchi tomondan og'zaki nutq uchun belgilangan mavzular atrofida ko'riladi.

Turli qarash

faqat mavzular

faqat tekstlar

Masalan: Kino mavzusi, proektor yordamida bitta kino mavzusida videorolik ko'rsatingda, videorolik tugagach u haqida savol berib ko'ring. Keyin yana ulardan so'rang. Siz kinoga qachon, kim bilan borganingiz haqida so'zlab bering. Filmda bosh rolni kim o'ynaganligini, o'zingiz yoqtirgan aktyorlar haqida aytib bering.

3. Situatsiya: audioyozuv yordamida bron situatsiyani eshitrib ko'ring yoki so'rang; do'stingizni uchratib qoldingiz, unga ko'rgan filmingiz haqida so'zlab bering.

Mavzular bo'yicha ishlash materialini ma'lum darajada sistemaga solishga yordam beradi, o'quvchilar o'z muvaffaqiyatlarini o'zlari ko'radilar. Situatsiyalar real va xayotiy bo'lishi kerak.

Audio yozuv yordamida bitta tekst eshitrib ko'ring.

Topshiriq:

Tekstdagi ma'nodan nima yoqdi-yu, nima yoqmadi, so'zlab bering; Tekstni reja bo'yicha so'zlab bering; o'zingiz yoqtirgan kitob yoki yozuvchi haqida so'zlab bering;

Nutqning bunday "Tayyorlanmagan" formalaridan tashqari yuqori sinflarda "Tayyorlangan" nutqdan ham topshiriqlar bo'lishi kerak. Masalan: o'qilgan material yuzasidan axborot, ma'ruza, gazetadagi maqolani sharxlash va x. k. Keyinchalik kuchli o'quvchilarga axborot tayyorlashni buyurish mumkin. Dialogik nutqni o'stirish: intervyudan foydalanish mumkin. Bir o'quvchi bola o'quvchilarning savollariga javob qaytarishi mumkin.

Audirovaniya: Maxsus tekstlarni tinglashni mashq qilish. Bu tekst keyincharoq suhbat uchun mavzu vazifasini o'taydi. Bunda tekstni asosiy g'oyasi tushinilganligi aniqlanadi, qiziq materialni ma'lum qilish imkonini beradi. Tekstni necha marta tinglash kerak?

Til materialini o'zlashtirish.

Yuqori sinflarda o'qiganni tushinish uchun kerakli bo'lgan til materiali o'rganiladi.

Masalan: Participle (Gerund Infinitive).

Egallangan bilimlarni sistemaga solish kerak. Eshitilishi jihatidan bir-biriga yaqin juft so'zlarni tinglash va takrorlash;

O'qish vaqtida eng katta qiyinchilik tug'diradiganlardan biri frazeologiyadir.

Frazeologik birikmalarni o'quvchilar qismlarga aylantira olmaydilar.

Masalan; to give one's word - to take part - to take points - to put one's best foot forward etc.

Lekin ba'zilarini tarkibiy elementlarini so'ratish mumkin. Bu esa ularni ma'nosini tushinishga yordam beradi. Biroq, quyidagi birikmalarni tarkibiy qismlarga ajratish orqali ularni ma'nosini tushinish oson.

Masalan: make playces, make a mistake, to take a bus, to take a train va x. k.

Frazeologik tushunishni o'rgatishda o'quvchilarni aktiv minimumida bor bo'lgan namunalarga asoslangan holda olib borish kerak. Bunda frazeologik birikmalarni ona tili ekvivalentini topish kabi mashqlarni bajarish kerak.

Darslarni tuzilish tiplari.

VIII-IXsinf darslarining tuzilishi oldingi bosqichlardagiga nisbatan ancha o'zgaradi. Bu uyda mustaqil ishlashlarining ortishi xissasiga ham bog'liqdir.

I tip darslarining maqsadi va vazifalari til materialini (jumalarni leksik, grammatik) sistemalashtirish va nutq faoliyatining barcha turlarida ulardan bir-biriga yaqinroq bog'langan holda foydalanish. Masalan: situatsiyalarga qarab leksik materialni ishlatish va notanish leksik grammatik birikmalarini konspektga muvofiq qo'llash. Ikki til lug'atdan foydalanish.

I tip darslarining o'ziga xos xususiyati o'quvchilarning mustaqil ishi (Masalan: mat. gruppalariga ajratish lug'at bilan ishlash) kabi dars zvenolarini, qismlarini o'qituvchi topshiriq berib javob oluvchi qismlar bilan tez-tez almashib turishi kerak. (M: topshiriq javob reaksiya, topshiriq javob reaksiya)

II tip darslari. maqsad va vazifalari: nutqiy ko'nikmalarning barcha turlari bilan chambarchas bog'langan holda konkretlashtiriladi. Masalan: tarjimasiz o'qish (lug'atsiz) va o'qilgan material sohasidan monolog tarzda fikr bayon qilish, o'qilgan tekst bo'yicha dialogik nutqni o'stirish; 10-12 jumladan iborat bo'lgan monologik nutqni o'stirish; yozma nutq o'qilgan mavzuga annotatsiya berish so'ngra qilganni muhokama tarzda o'stirish; mustaqil ishlash dars o'qitish topshiriqni bajarish kabi qismlar. yo'l-yo'riq ko'rsatish.

Metodik adabiyotda yuqori sinflarda bir maqsadga ega darslar bo'lishi kerak deyiladi. M: G. V. Rogova, a) o'qish darslari b) og'zaki nutqni o'stiruvchi darslar. Darslarni tekst bilan ishlash etaplariga muvofiq bo'lish (passiv) maqsadga muvofiq emas, chunki monolog va dialog ko'nikmalarini hosil qilish etaplari bunga mos kelmaydi. Darslarni tekst bilan ishlashga qarab gaplar tiplarga ajratiladi. Yakun to'g'ri tanqid qilinadidi. Bu holda chet tili o'qitish tekstni o'rgatishga tenglashib qolgan bo'lar edi.

S.F.Shatilov nutq faoliyatini turlariga va maqsadiga ko'ra tiplarga ajratadi. Darsning asosiy maqsadi, o'qishga o'rgatishga yordamchi og'zaki nutq ko'nikmalarini o'stirish. Og'zaki nutq darslarining asosiy maqsadi, o'qish yordamchisidir. Kombinirovaniya o'qish va og'zaki nutqga o'rgatish teng olib boriladigan darslar.

III BOB YUZASIDAN XULOSA

Ma'lumki chet tiliga o'qitishda o'quv jarayonini o'quvchilarning yosh hususiyatlarini hisobga olingan holda tashkil qilish muvaffaqiyat garovidir. Bu yerda eng muhimi o'quvchi oldiga qo'yilgan vazifa ularning qobiliyatlariga yarasha bo'lishi kerak, ya'ni u o'quvchiga xaddan ortiq qiyinchilik tug'dirmaslik kerak. Psixologiya kursida ma'lumki o'quvchilar (chet tili o'rganishni o'rtanchi bosqichida) bu yoshda tez o'sadilar, natijada ular tez charchaydigan, tez jahli chiqadigan, o'jar bo'lib qoladilar. Shuning uchun IV-V sinflarda til o'rganishdagi aktiv faoliyatini unchalik aktivlikni talab qilmaydigan ish turlari bilan almash tirishi maqsadga muvofiq. Bu ayniqsa dars oxirida juda zarur. Va bundan ko'rinadiki IV-Vsinflarda ko'proq animatsion ko'rinishdagi darslarni tashkillashtirish lozim. Bunday texnik vositalarga misol tariqasida video proektorni keltrishimiz mumkin. VII-VIII sinf chet tili darsi til materialini o'rganishning tematik va intensivligi bilan ajralib turadi. Bu bosqichda o'quvchilar harakat qilib, harakatsiz (biror topshiriqsiz) turib qolishini yoqtirmaydilar. Shuning uchun VI-VII sinfda chet tili darsni temasini aslo susaytirmasligi kerak. Ba'zi ilmiy ishlarda ko'rsatilishicha 8-sinfga kelib o'quvchilarda chet tili materialini (turli mazmundagi) eslab qolish qobiliyati o'sadi, (so'zma-so'z eslab qolish emas, balki mushoxadaviy xotira) bilib olishga bo'lgan qiziqishi so'nadi. Ko'p o'quvchilar darsda zerikib o'tirishadi va aktivlik ko'rsatmaydilar, vazifani bajarishga befarq qaraydilar. Bu yoshdagi o'quvchilardga o'zini-o'zi boshqarishdagi irodalilik xoli etarli darajada shakllanmasa va ulardan ichki norozilik, tez jaxli chiqish, qarshilik bildirish kabi hususiyatlar kuchli bo'lib, bu chet tiliga bo'lgan qiziqishni keskin kamayishiga olib keladi. Ularda o'z kuchiga va o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonch susayadi. Bu esa o'quv jarayoniga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi, o'qishga bo'lgan qiziqishni pasayish sabablaridan biri bu o'quvchilarning umumiy aktivligi va serharakatliligini o'quvchilik talablariga nomutanosibliigidandir. Masalan: IV-V sinfda ishonuvchanlik til o'rganishga bo'lgan tabiiy istak baho norma va kattalarni aytganini bajarish va x. k

Agar biz IV-V sinf o'quvchilari bilan VI-VII sinf o'quvchilarini yosh hususiyatlarini o'lchab ko'rsak, u xolda shu ma'lum bo'ladiki IV-V-sinf o'quvchilari uchun muhimi o'qishdir. VI-VII sinf o'quvchilari uchun esa chet tilini gapirish. Bu yoshdagi o'quvchilarda mustaqillilikga intilish o'z-o'zini boshqarish kabi masalalar kuchli. Ba'zan bir o'zini butun sinfga qarshi qo'yib, boshqalar oldida o'zini, o'zligini ko'rsatish, ba'zi bolalarda boshqa bolalar oldida o'zining qobiliyatligini ko'rsatish istagi kuchli bo'ladi. Ayni shu yerda bolalarni kelajagi haqida o'ylab ko'rish, biror kasbga qiziqishi shakllana boradi. Yuqorida bayon qilinganlarning barchasi chet tiliga o'qitishni va o'quvchilar faoliyatini nazorat qilishni qiyinlashtiradi. Buning oldini olish uchun maxsus ish olib borish zarur. Ya'ni ularni mustaqillikka intilish istagini qondirilishiga g'amxo'rlik qilish, uni to'g'ri yo'lga solish kerak. Ayniqsa, VII-VIII sinf o'quvchilarida agressivlik kuchli. Ularga nisbatan qattiq qo'llik qilish, nazoratni kuchaytirish, ulardagi agressivlikni kuchaytirib yuborish natijasida o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida turli xil nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun Alkazishvelin A.A. bunday vaqtda talabchanlilikni biroz bo'shashtirish, o'quv jarayonida keskinlikni keltirib chiqaradigan elementlardan ya'ni musobaqalashishni chiqarib tashlashni taklif qiladi. Bu yoshda eng muhimi o'z faoliyatiga (ishda, uyida, o'qishda) muvaffaqiyatga erishishdir. Shuning uchun ham chet tili o'qituvchisi o'quvchilardagi chet tili o'rganishga bo'lgan ozgina yutuqlarni ham ko'rsatish lozim. O'quvchini qilgan xatosi uchun boshqa o'rtoqlari oldida uyaltirish, ularda o'qituvchiga nisbatan xurmatsizlikni agressivlikni qasos olishga bo'gan xissini keltirib chiqaradi. VII-VIII sinf o'quvchilari faoliyatining turida bo'lmasin, o'zini boshqalarga solishtirib ko'rishga harakat qiladilar va bunda ustunlikga erishishni xohlashadi. Ulardagi bu istak o'zlarini turli qiyinchiliklarga bardosh berishda, o'zlarini irodaliliklarini ko'rsatishga urinishadi va qo'rqinch ustidan g'alaba qozonishga intilishlarida namoyon bo'ladi. Ularda "o'zligini" namoyon qilish istagi kuchli,

Xulosa

Bitiruv malakaviy ishimizga umumiy xulosa sifatida shuni aytish joizki ingliz tili hozirda butun dunyoda qo'llanilayotgan tillardan biridir. Ingliz tilini o'qitish metodikasi chuqur va ko'p bosqichli tarixga ega. Bu vaqt mobaynida tilni o'qitishning ko'plab metodlari yaratildi va vositalari amalda bo'ldi. Shular qatoriga til o'qitish bo'yicha qo'llaniladigan texnik vositalarni ham kiritishimiz mumkin. Ushbu malakaviy ishimiz hozirgi kunda dolzarb bo'lgan ingliz tilini, xususan bu til o'rgatishda o'qituvchilar bag'ishlanadi. Malakaviy ish yakunida quyidagi ilmiy – amaliy xulosalarga keldim:

- Ingliz tili talaffuzini o'rganishda faqat tovushlarni, so'zlarni talaffuz qilishda emas, balki urg'u qo'yish, jumlar ohangida ham qiyinchiliklarga duch kelinadi.
- Ingliz tili talaffuzini o'qitishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelinsada, ularni aniqlagan holda til o'rganuvchilar, jumladan o'quvchi va talabalarning talaffuz bo'yicha tipik xatolar qilishini bartaraf etish mumkin.
- Ko'p hollarda ingliz tili talaffuzini o'rganishda o'zbek o'quvchi va talabarlari interferentsiya yani o'zbek tilidagi fonetik va fonologik hodisalarni ingliz tiliga ko'chirish kabi holatlarga yo'l qo'yadilar.
- Talaffuzni o'rgatish talaffuz materialining xususiyatiga bog'liq bo'lib, bunga ko'ra taqlid va tushuntirish metodlari ishlab chiqilgan.
- Talaffuz o'rgatish jarayonida yondashuvlar artikulyatsiya va til o'rgatishning tabiiy qonuniyatiga (avval nutqni tinglash qobiliyati, so'ngra talaffuz va ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish) asoslanadi
- Ingliz tili talaffuzini o'rgatishda texnik vositalardan foydalanish sinfda, darsda ma'lum darajada til muhitini yaratib, o'quvchilarda tilga nisbatan qiziqishini orttiradi.
- Texnik vositalardan nafaqat talaffuzni o'rgatishda, shuningdek til materiallari va nutq faoliyati turlarini o'rgatishda ham samarali foydalanish mumkin.

- Til o'rgatishda foydalaniladigan texnik vositalarning asosiy xususiyati shundaki, bu vositalar hech qanday qolip yoki konsepsiyaga ega emas. Ya'ni ular tinimsiz rivojlanib, yangilanib o'z ichiga yangidan-yangi turlarni kirgizib boraveradi.
- Dars mobaynida texnik vositalardan foydalanganda o'qituvchi ma'lumot manbai emas, shunchaki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi – instructor hisoblanadi.
- Texnik vositalar hozirgi rivojlanish tez suratda kechayotgan paytda o'quvchilarning e'tiborini tilga tortadigan eng afzal vositadir, chunki ular tilni o'rganishni osonlashtiradi.

Shuningdek, ushbu malakaviy ishda talaffuzni o'rgatish bilan aloqador ko'plab muammolar va masalalarga aniqlik kiritilgan.

Ushbu malakaviy ishda so'ngi paytlarda ko'p o'qituvchilar tomonidan qo'llanilgan texnik vositalar sanab o'tilgan va ularga ta'rif berilgan. Fonogramma, videogramma, videofotogramma, ulardan foydalanishda kerak bo'ladigan magnitafon, record player, proektorlar, televizor va video, audio uskunalar shular jumlasidandir.

Ushbu malakaviy ishda doim o'qituvchi va talabalar tomonidan zerikarli deb hisoblangan fonetik mashg'ulotlarni texnik vositalarni qo'llagan holda qiziqarli o'tkazish nazariy va amaliy isbotlab berilgan. Unga ko'ra talaffuz o'rgatish bo'yicha mashg'ulotlar tushunarli va qiziqarli bo'lishi uchun guruh-guruh bo'lgan holda va fonogramma, videogrammadan nutqni eshittirishdan oldingi yoki keyingi mashg'ulotlarni o'tkazish kerak. Leksika, gapirish, o'qish, tinglab tushunish mashg'ulotlari bilan birga o'tkazish uni oson tushunish va va qo'llash imkonini beradi.

Texnik vositalardan foydalanishda ingliz tilida tinglab tushunishni o'rgatish mashg'uloti o'z ichiga uch bosqichni:

- Matnni eshittirishdan oldingi bosqich;
- Matnni eshittirish davomidagi bosqich;

- Matnni eshittirgandan keying bosqichni o'z ichiga oladi.

Darslarda texnik vositalarni qo'llashning asosiy maqsadi ingliz tilida aniq, ravon va bexato gapirishga erishishni osonlashtirishdir.

Yakuniy fikrlar sifatida shuni aytishim mumkinki, hozirgi kunda texnik vositalar ingliz tilida muloqot qilishni o'rgatishning samarali, ko'pchilik tomonidan qo'llaniladigan vositadir va texnologik vositalar nafaqat til o'qitish metodikasida, balki biznes, iqtisod, siyosat kabi jamiyatning asosiy tarmoqlarida keng foydalanilmoqda.

Ushbu malakaviy ishimning mavzusini yoritish uchun 288-maktabda o'tkazilgan texnik vositalar qo'llanilgan dars mashg'ulotlari amaliy xulosa bo'lib xizmat qildi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

2. Karimov I.A. Yuksak mahnaviyat - yengilmas kuch. Toshkent 2008.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent 1999.
4. Karimov I.A. Jaxon moliyaviy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent 2009 SHarq. nashriyoti
5. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini yrganish kursi.
6. Karimov I.A. Zamonaviy kadrlar – taraqqiyotimizning muxim omilidir. Mahrifat gazetasi 1997 7 iyun
7. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 2009 yil.
8. Yzbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilinganligining va 21 yilligiga bag'ishlangan nutqi. Xalk so'zi. gazetasi 2012 yil.
9. Alimov SH. S. Intensiv metodlar, interfaol metodlar, noannaviy dars o'tish usullari, didaktik o'yinlarlar. Andijon 2009
10. Hoshimov O', Yoqubov I. "Inliz tili o'qitish metodikasi", Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriryati Toshkent-2003.
11. Saidumar Saidaliyev "Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar". Namangan-2004.
12. Sattarov T. "Bo'lajak chet tili o'qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantrish texnologiyasi" Toshkent-2003.
13. Jalolov J.J Jaxon lingvodidaktikasining zamonaviy konseptual yangilanish bosqichi xususida xorijiy filologiya. Til Adabiyot Ta'lim (30) 2009
14. Jalolov J.J, S.T Mahkamova, Sh.S Ashurov "English language teaching methodology" Toshkent-2015 "Fan va texnologiya" nashriyoti
15. Карнов Г. В. Уқитишнинг техникавий воситалари. Тошкент, 1974.
16. Ляховиский Л.В Основные вопрос от фонометерслов для обучения иностранному языку в спицалном вузе. ИЯВШб выпуск Н12 "висшая школа" 1977

17. Пресман Л.П. Технические средства на уроках русского языка. "произведение" 1976.
18. www.learnEnglish.org.uk
19. www.ericdigests.org/2003
20. www.teachingpronunciation.net
21. www.teachinglanguageusingcomputertechlonogy.
22. www.unr.edu/homepage/hayriyek
23. www.britishcouncil.uk
24. www.methodologyofTFL.com
25. www.researchesonlanguageteaching.com